

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Tabiiy fanlar va geografiya  
Fakulteti dekani:**

\_\_\_\_\_ dots. V.Azizov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 yil

**“Himoyaga ruxsat beraman”  
kafedra mudiri  
\_\_\_\_\_ dots. B.Baratov  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012 yil**

**TABIIY FANLAR va GEOGRAFIYA FAKULTETI**

**5440500-Geografiya kundizgi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bosqichi  
bitiruvchisi**

**YULDASHEV AKRAM AXMADOVICHNING**

**GEOGRAFIYA TA'LIMIDA EKSKURTSIYANING  
O'RNI VA ROLI mavzuidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar :**

**p.f.n., dots. M.Mo'minov**

**Namangan – 2012**

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB. MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA EKSKURTSIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>9</b>
1.1.Maktab geografiya darslarida ta’lim integratsiyasi va innovatsiyasi.....	9
1.2.Maktab geografiya fanlari DTSlari va namunaviy ishchi daturlarning mazmun va mohiyati.....	22
1.3.Maktab geografiya ta’limida sinfdan tashqari ishlar, ularning turlari.....	30
<b>II-BOB. MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA EKSKURSIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH YO’LLARI VA USULLARI.....</b>	<b>38</b>
2.1.Maktab geografiya darslarida “ekskursiya darslari”ni tashkil etishning asosiy uslublari va ularning turlari.....	38
2.2.O’quvchilar ongiga “ekskursiya darslari” ma’lumotlarini singdirish jarayonida ta’lim-tarbiyaning ahamiyati.....	42
2.3.Maktab geografiya ta’limini rivojlantirish masalalari.....	48
2.4.Yoshlarning ma’naviy barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda geografiya fanining ahamiyati.....	55
<b>Xulosa.....</b>	<b>62</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>66</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizdagi o'zgaruvchan iqtisodiy jarayonlarga mos, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit va qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Yoshlar tarbiyasi hamda ularni tarbiyalashda ta'lim tizimining naqadar ahamiyatga egaligi, Prezidentimizning Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining "Ta'lim-kelajakka yo'naltirilgan sarmoya" mintaqaviy konferentsiyasi ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidagi ushbu jumladan ham anglash mumkin: "Hozirgi paytda bir haqiqatni har qachongidan ko'ra teran anglab olish muhim ahamiyatga ega. Samarali ta'lim tizimini yaratmasdan turib, jamiyatni isloh etish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini tasavvur etish qiyin. Ushbu sohaga ustuvor ahamiyat berilishi shubhasiz, uning kelgusi taraqqiyoti uchun zamin hozirlashdir"<sup>1</sup>.

Bilimdon mutaxassis kadrlarni tayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish esa har jihatdan ustozlarga, ularning bilimdonlik bilan o'qitish jarayonini tashkil qilishi va dars berishiga bog'liq. SHuning uchun ham o'quv jarayonini tashkil etish, talabalarning chuqur bilim olishiga yordam beruvchi o'quv uslublarini qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, har qanday tizimning, iqtisodiy taraqqiyotning mukammalligi, barkamol shakllanishi eng avvalo uning innovatsion mehnat resurslariga va kadrlar tayyorlashning sifatiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov zamonaviy kadrlar, xususan, o'qituvchi pedagog kadrlarni tayyorlash xususida quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Eng muhimi, shuni anglab yetishimiz kerakki, kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, sa'y - harakatlarimiz kutilgan natijalarni berishi, hayotimiz, ma'naviyatimiz o'zgarishi qiyin kechadi. Demakki, zamonaviy ta'lim - tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog'i darkor..."<sup>2</sup>

SHubhasiz, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida (1997-2001) «O'quv uslubiy muammolarining hamda ta'lim jarayonini didaktik va axborot ta'limotning yangi avlodini ishlab chiqishni joriy etish»; ikkinchi bosqich (2001-2005 yil) ta'lim muassasalarining moddiy texnika va axborot bazasini mustaxkamlashni davom ettirish, o'quv tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash; uchunchi bosqich (2005 yil va undan keyingi yillarda) «Ta'lim muassasalarini resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustaxkamlash, o'quv tarbiya jarayonini yangi uslubiy muammolar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash» dolzarb vazifalar qatorida belgilab berilgan. O'quv uslubiy adabiyotlar majmualarini yaratish va amaliyotga joriy etish, bir tomondan, pedagog-olimlar, ilg'or-o'qituvchilar, amaliyotchilar tomonidan katta ishlarni bajarishni, ta'lim-tarbiya, pedagogik texnologiyalar sohasida fundamental tadqiqotlar o'tkazish, pedagogik texnologiya loyihalarini ishlab chiqish va ilmiy tajribada sinovdan o'tkazish, ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

SHuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimini, kadrlar tayyorlashni yangilash vazifalarini mavjud o'qish usullarini ta'lim texnologiyalari asosida qayta tashkil etish auditoriyada, sinfda, darsdan tashqarida o'quv tarbiyaviy ishlarini bajarishga kirishgandayoq pedagogik jarayonning natijasini kafolatlaydigan qilib loyihalash va amalga oshirish yo'li bilangina bajarish mumkin.

Ta'kidlash joizki, mavjud geografiya o'qitishning metodik tizimi barcha o'quvchilar uchun yagona mazmun tanlab, uning bir xil suratda o'zlashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning intilishi va qiziqishlarini turlicha bo'lishini xisobga olishga yo'l qo'ymas edi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari mazmuni va tuzilishini o'zgartirishni taqozo qiladi.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Yevropa havfsizlik va hamkorlik tashkiloti "Ta'lim kelajakka yo'naltirilgan sarmoya" mintaqaviy konferentsiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrik, "Ma'rifat", № 7 aprel 2004 yil, № 28

<sup>2</sup>Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 29 yanvar.

<sup>2</sup> <http://ekonomic.docu.ru/?id=797665467>

Geografiya o'qitish mazmunini belgilash murakkab metodik muammo hisoblanadi. Chunki, geografiya vositasida maktab bitiruvchisida ijodiy shaxs qirralarini shakllantirish davr talabiga aylandi. Bunday sharoitda o'quv predmetining vazifalari o'zgarib, uning mazmuni o'rganish ob'ektidan o'quvchini rivojlantirish vositasiga aylanadi.

O'quv fani sifatida geografiya o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega, chunki u jamiyat hayoti va uning tabiat bilan hamkorligini o'rganish kompleks geografik yo'nalishga asoslangan. Geografiyani o'rganish natijasida o'quvchilarda inson va atrof muhit haqida yaxlit tasavvur shakllanadi. Geografiya ta'limi rivojlanishining hozirgi bosqichida uning mazmuni o'quvchilarda geografik madaniyat shakllantirishga yo'naltirilgan.

Geografiya o'qitish metodik tizimining xususiyatlari, uning mazmuni va tuzilishi o'qitishning maqsadiga bog'liqdir. Jamiyatning barcha qatlamlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar natijasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy hayotni insonparvarlashtirish ta'lim maqsadni yo'nalishini o'zgartirish.

Hozirgi kunda o'quv predmetlari va maktabning vazifasi o'zgarmoqda. O'quv predmetining mazmuni ta'lim va tarbiya, o'quvchi dunyoqarashini boyitish vositasiga aylanmoqda. Yuqorida keltirilgan holatlar mazkur BMI mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Maktab geografiya darslarlarida ekskurtsiya darslarini tashkil etish masalalarini o'qitishning mohiyati, mazmuni, tabiat-aholi-ho'jalik tarqqiyoti haqidagi ta'limotlarni rivojlantirishga MDH va O'zbekiston geograf olimlari N.N.Baranskiy, N.V.Petrova, I.A.Vitver, V.P.Maksakovskiy, V.A.Korinskaya, A.Abulqosimov, H.Vahobov, P.G'ulomov, F.Mo'minov, Z.Akramov, A.Qayumov, A.Soliev, SH.Zokirov, P.Musaev, J.Musaev, A.Soatov, A.Soliev va boshqalar tomonidan sezilarli hissa qo'shilgan.

O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish davrida maktab geografiya darslarlarida ekskurtsiya darslarini tashkil etish masalalarini o'qitishning mohiyati dolzarb muammolari va ularni hal etish yo'llari mamlakatimiz Prezidenti tomonidan chiqarilgan farmon va qarorlarda bayon etilgan. Ammo, pedagogik tadqiqotlar amaliyotida mamlakatning muayyan mintaqalari misolida geografiya darslarida ekskurtsiya darslarini tashkil etish masalalarini o'qitishning mohiyati rivojlanishidagi o'zgarishlarni tahlil qilish masalalariga kam e'tibor berilgan. Mazkur ish ushbu jihati bilan yuqoridagi tadqiqotlardan farqlanadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqotning maqsadi Namangan shahridagi 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-6- sinf o'quvchilari misolida boshlang'ich tabiiy geografiya, materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi darslarida ekskurtsiya darslarini tashkil etish masalalarini o'qitishning mohiyati asosiy yo'nalishlari va muammolarini ilmiy tadqiq etishdir. Buning uchun tadqiqot oldiga:

- 5-6-sinf o'quvchilarida boshlang'ich tabiiy geografiya darslarida ekskurtsiya darslarini tashkil etish masalalarini o'qitishning ahamiyati o'rganishni;
- maktab geografiya darslarida ta'lim integratsiyasi va innovatsiyasini o'rganish;
- maktab geografiya fanlari DTS'lari va namunaviy ishchi daturlarning mazmun va mohiyati tahlil qilish;
- maktab geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlar, ularning turlarini uslubiy asoslarini tadqiq etishni;
- Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekiston ta'lim tizimida tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishi va qulay investitsiya muhitining yaratilganligini o'rganish;
- maktab geografiya darslarida "ekskursiya darslari" tashkil etishning asosiy uslublari va ularning turlarini tahlil qilish;
- O'quvchilar ongiga "ekskursiya darslari" ma'lumotlarini singdirish jarayonida ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini baholashni;
- maktab geografiya ta'limini rivojlantirish mummolari va asosiy yo'nalishlarini ilmiy tadqiq qilish asosida takliflar ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan.

**Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.** Tadqiqot olib borish davomida ilgari surilgan taklif va mulohazalarni amaliyotga tadbiq etish va ularning samaradorlik darajasini aniqlash hamda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tadqiqot **ob'ekti** sifatida Namangan shahridagi 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 5-6- sinf o'quvchilari **predmeti esa** umumiy o'rta ta'lim muasasalarini boshlang'ich tabiiy geografiya va materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi darslarida ekskurtsiyalarni tashkil qilish masalalarini o'qitish muammosi qo'yilgan.

**Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, ta'limni isloh qilish bilan bog'liq huquqiy va me'yoriy hujjatlar, xorijiy hamda malakatimiz yetakchi olimlarining ilmiy asarlari tashkil qiladi.

Tadqiqot jarayonida retrospektiv, tizimli va statistik tahlil, iqtisodiy-statistik guruhlashtirish, o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish, iqtisodiy-matematik bashoratlash, monografik, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari o'rta umumta'lim maktablarida geografik fanlar DTS'lari va namunaviy dasturlarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. SHuningdek, ishdagi ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlarining geografiya fakul'teti talabalariga geografiya o'qitish metodikasi fanidan o'quv qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

**BMning tuzilishi va hajmi.** Mazkur ish kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini va ilovalarni o'z ichiga oladi. Uning umumiy hajmi 71 betdan iborat.. Adabiyotlar ro'yxati nomdagi manbaalarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

BMning I-bobida maktab geografiya darslarida ekskurtsiya darslarini tashkil etishning usullarini o'qitishning nazariy va uslubiy xususiyatlari to'g'risida batafsil so'z yuritilgan.

II-bobda Maktab geografiya darslarida ekskursiya darslarini tashkil etish yo'llari va usullarini o'qitish vositalari va usullari tadqiq etilgan hamda alohida taklif va mulohazalar bildirilgan.

## I-BOB. MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA EKSKURTSIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

### 1.1. Maktab geografiya darslarida ta'lim integratsiyasi va innovatsiyasi

Respublikamiz xalq ta'limi o'ziga xos rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Bu o'ziga xoslik, eng avvalo, ta'lim-tarbiya mazmunini milliyashtirish, yag'ni o'zimizning juda boy o'tmish tariximiz, madaniyatimiz, fanimiz, tilimiz o'z mohiyati bilan juda chiroyli, yuksak insoniy, axloqiy mazmunga ega bo'lgan milliy urf-odatlarimiz asosida jamiyatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni o'qitish baxtiga muyassar bo'lganimizda ko'rinadi. Bu narsa hammamizning qalbimizda g'urur hislarini to'lqinlantiradi. Mana shu sharoit barchamizdan juda katta ko'tarinkilik bilan jamiyatimizning yosh avlodini yuksak vatanparvarlik, xalqparvarlik, milliy g'urur ruhida tarbiyalashimizni taqozo etadi. Yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, eng avvalo, o'zimizda bu sifatlarni mujassamlashtirishni talab qiladi. SHu bilan birga ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqozo etadi. Bugun eski uslub bilan yangi vazifalarai amalga oshirib bo'lmaydi.

Har kuni talaygina yangilik, yangi texnologiyalar yurtimizga kirib kelmoqda. Yangi texnologiyalar o'z tushunchalari, "tili" bilan kirib kelib, Vatan iqtisodiyoti, fan-texnika taraqqiyotining darajasini asta-sekin yuksaltirmoqda. Vatanimizning pedagogik taraqqiyoti ham bundan mustasno emas, albatta.

Hozirgi milliy pedagogikamizning daraxti ikki hayotbaxsh irmoqdan suv ichadi. *Biri* – ming yilliklar davomida shakllanib, gavhar zarralaridan hosil bo'lgan milliy tarbiya tajribasi bo'lsa, *ikkinchisi* - jahonning ilg'or, sinalgan pedagogik innovatsiya yutuqlaridir. Fan va amaliyot birligi tag'minlanishi uchun maktab pedagogik faoliyati ham bundan mustasno bo'lmasligi lozim. "Yangi pedagogik texnologiya", "pedagogik diagnostika", "kibernetik pedagogika", "test-reyting" kabi tushunchalarning tub mohiyatini o'zlashtirmasdan, ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanmasdan turib, biz jahon *pedagogik integratsiyasida* o'zimizning munosib mavqeyimizga erishmog'imiz mushkul bo'ladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'lim integratsiyasi haqida shunday degan edilar: "Jahon bozoridagi integratsiya, ilmiy - texnikaviy taraqqiyot surg'atlari xalq ta'limining barcha bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashni talab etmoqda. Binobarin, bu hol tarbiya, ta'lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal etishga jamuljam yondashishni taqozo etadi".

SHu Ma'noda, "integratsiya" so'zi birlashtirish degan Ma'noni bildiradi desak, yangilishmagan bo'lamiz.

Pedagogik texnologiya nima? Nega bu so'z birikmasiga "yangi" so'zini qo'shimcha qilib, "yangi pedagogik texnologiya" deb aytamiz? U nima uchun bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida zaruratga aylandi? Nega endi shuncha yillardan beri qo'llanilib kelingan ta'lim jarayonini eskicha tashkil etishdan voz kechishimiz kerak va o'quv jarayonini loyihalashga yangicha yondashish zarur?

Bu kabi savollarga javob berish uchun, eng avvalo, mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlarini anglab olmoq lozim. Bu yo'nalishlar:

- ta'lim mazmuni va tizimini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaravini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi-o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- va nihoyat, bu tub islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Xulosa qilib aytsak, yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv reja, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, tashkil etish zaruriyati tug'ilmog'ida.

Prezidentimiz I.A.Karimov alohida tag'kidlaganlaridek, biz "Mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday mag'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotda nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak". SHu sababli birinchi navbatda ta'lim mazmuni, uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi - ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatni ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yildi.

Bu g'oyani, bizningcha, ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari ro'yobga chiqarishi mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy-amaliy, ijtimoiy, mag'naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, sang'at, siyosat, falsafa, fan vabbshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldiriladigan boyliklar).

Ta'lim mazmuni, uning komponentlari, tarkibi, vazifalari haqida so'z ketganda, dalillar bilan qonuniyatlar, yaqqollik bilan mavhumlik, bilimlar bilan haqiqatni mustaqil bilish metodlari o'rtasidagi maqbul keladigan munosabatlarni aniqlash zarur.

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, hozirgi zamon ta'limida didaktik-semantik jihatlarni aniqlash kam o'rganilgan sohalarga kiradi. Hanuzgacha tushunish muammosi (mohiyati) odamlar tomonidan har xil talqin qilinadi, didaktik semantik jihatdan murakkab matnlar va g'oyalarni bayon qilish usullari ustida kam bosh qotirmoqdalar. Ilmiy konsepsiyalar murakkablashib, chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda semantik muammolar o'quv materialni bayon qilish, o'quvchilarni fan rivojining yangi davrini tashkil qiluvchi nazariyaga ertaroq olib kirish, ta'limda dalillar bilan nazariyalar munosabatlarini hal qilish muhim ahamiyatga ega. Bu masala ham tezroq o'z yechimini topishi kerak.

Yana bir muammo ustida to'xtalishni lozim topdik. Gap shundaki, biz ko'pincha "ta'lim mazmuni" bilan "o'quv fani mazmuni" tushunchalarini bir xil deb qaraymiz. Aslida unday emas. Oldingi tushuncha kengroq, yag'ni o'quv fani mazmuni faqat shu fanga oid bilimlarni - tushuncha, hukm, xulosalarni o'z ichiga oladi. Ta'lim mazmuni esa bulardan tashqari, ilmiy bilish metodlari, usullari va amallari, yag'ni o'quvchilarda mustaqil bilish malakalarini hosil qiluvchi metodologik bilimlar (tag'rif, isbot, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, tasniflash, muntazamlashtirish, umumlashtirish va hokazo)ni ham o'z ichiga oladi, bu borada ham darsliklarimizda anchagina kamchiliklar mavjud.

Lekin darsliklarimiz qanchalik pishiq bo'lmasin, ulardagi ilm durdonalarini o'quvchining "kalla"siga quyuvchi o'tkazgich - o'qituvchi tayyor bo'lmasa, eski qolipdan chiqmay dars o'tsa, muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Darsda o'qituvchi. U axborot berish, tezroq-tezroq o'qitish bilan ovora. Lekin o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish darajalari har xil, xohish-istaklari turlicha, ular passiv eshituvchi, quloq soluvchi, bu ularning o'quv jarayonidagi masg'uliyatini, javobgarlik hissini susaytiradi. Demak, ular mustaqil fikr yuritish, mushohada qilish, xulosa chiqarishdan yiroqda.

Unda nima qilmoq kerak? Dars jarayonida, ta'lim-tarbiyada o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta'lim jarayoni subekti bo'lishi kerak, yag'ni o'qish, o'rganish, mutolaa qilish o'quvchi zimmasiga o'tishi kerak.

Har bir dars uchun ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, yag'ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan uchyoqlama maqsadlar qo'yiladi. Darsni tashkil qilish shakli uning qatnashchilarining o'zaro aloqalariga bog'liq bo'lib, u maqsadlarga, o'quv materiali xususiyatlariga, ta'lim metodlariga va o'quv imkoniyatlariga bog'liq. Bunga erishish uchun o'qituvchi rahnamoligida o'qituvchi bilan o'quvchilar birgalikda harakat qiladilar. Xuddi mana shu jarayon didaktikada *o'quv jarayoni* deyiladi. O'quv jarayoni uch komponentdan iborat deb qaraladi.

O'quv jarayoniga bunday yangicha qarashning tub mohiyati shundan iboratki, o'qitishda ichki motivatsiyadan (diqqatni tortish, ichki tuyg'u, istak, zaruratni shakllantirish)

kelib chiqish kerak. O'quv jarayonida asosiy *harakatlantiruvchi kuch* - o'quvchi uchun ham, o'qituvchi uchun ham ichki motivatsiya lozim. Bunda o'quvchilarda bilim olishga intilish va bilim olishga ehtiyoj bo'lishi kerak, o'qish maqsadlari ichki ehtiyojga aylanishi kerak.

O'quvchi real hayotga kirib borish, unda faol ishtirok etish uchun bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga ilmiy bilish metodlariga ega bo'lishi kerakligini ongli ravishda tushunib yetishi lozim. Chunki ochiq jamiyatning asosiy belgisi dunyoni anglab yetish va unda o'zining munosib o'rnini topish uchun erkin izlanishdir.

Jahon pedagogik leksikonidan allaqachonlar "innovatsiya" tushunchasi keng o'rin olgan. Bu tushuncha "yangilik", "isloh" tushunchalari bilan ayniylashtiriladi. Keng Ma'noda ta'lim tizimidagi har qanday o'zgarish pedagogik innovatsiyadir. Dastlab bu tushunchalarni ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo'llashgan, so'ngra ta'lim tizimidagi har qanday yangiliklarga nisbatan qo'llandi. Pedagogik texnologiya deb atalishining boisi shunda. Hozirga kelib pedagogik innovatika fani shakllandi. Pedagogik innovatikaga pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nihoyat, uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida qaraladi. Bu ta'limot uch yo'nalishni o'z ichiga oladi:

*birinchisi* - pedagogik neologiya (yunoncha neo - yangi va logos - ta'lim; yangilik haqidagi ta'limot) deyilib, bunda pedagogika sohasidagi har qanday yangiliklar o'rganiladi, umumlashtiriladi;

*ikkinchisi* - pedagogik aksiologiya (yunoncha aksioma - hurmat qilmoq; isbotlanmaydigan ta'limot) deyilib, bunda pedagogik yangiliklar ichidan eng samaralilari tanlab olinadi;

*uchinchisi* - pedagogik praksologiya (yunoncha praks - harakat va logos - ta'lim; amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot) deyilib, bunda tanlab olingan pedagogik yangiliklar amaliyotda qo'llaniladi.

Har qanday pedagogik yangilik zamirida biron-bir g'oya yotadi. Masalan, bunyodkor o'qituvchi S.N.Lisenkovaning xilma-xil didaktik topilmalarining tub mohiyatini yangi o'quv materialini ilgarilama o'rganish g'oyasi tashkil qiladi. Bu g'oya asosida o'qituvchining bolalar bilan o'zaro harakati yotadi: sinfda psixologik birlik vaziyatni yaratish; har bir o'quvchi o'z shaxsini o'zi namoyon etishini tag'minlash; har bir metodik yondashuv uchun o'ziga xos muloqot yo'lini tanlash; o'quvchilar tashabbusini zimdan boshqarib borish. U har bir o'quvchi qalbiga, ularni tushunib yetish didaktik usullari, tashkiliy shakllari orqali yo'l topadi. Darsdagi o'quvchilar faoliyatiga nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilar ham rahbarlik qiladi. Avval ag'lochi o'quvchi, so'ngra boshqa o'quvchilar ham o'qituvchi topshirig'iga binoan nima ish qilganini aytadi va qolgan o'quvchilarni ortlaridan ergashtiradilar. Bunday "izohli boshqaruv" o'quvchi maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlanishi kerak. "Tayanch signallar" ijodkori deb tanilgan V.F.SHatalovning darslarida o'quvchi shaxsini ro'yobga chiqaruvchi, uning kimligini, nimaga qodirligini tasdiqlovchi didaktik o'yinlarga keng o'rin berilgan.

Bularning hammasi didaktik topilmalar, pedagogik kashfiyotlar, bir so'z bilan aytganda, yangi pedagogik texnologiyalardir.

Pedagogik texnologiya qanday usullar bilan o'qitika natija yaxshi bo'ladi, degan savolga javob beradi. U o'z tizimiga ega bo'lib, unda komponentlar ketma-ketligi, o'zaro bog'liqligi, bir butunligi saqlanadi.

Buning uchun bugun biz o'quvchiga "sen buni bilishing kerak" degan majburlovchi dag'vatdan "menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotda qo'llashga qodirman" degan ichki ishonch va intilishni uyg'otishga o'tishimiz kerak.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ishlab chiqilgan umumiy ta'lim fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishilgandan keyin bu sohadagi ishlarni aniq bir tizimga solish, qo'llab-quvvatlash, yangiliklarni joriy etishga yetarli shart-sharoitlar yaratadigan tuzilmalarga bo'lgan ehtiyoj yaqqol ko'zga tashlandi. Chunki davlat ta'lim

standartlari o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan majburiy minimal daraja bo'lib, davr o'quvchilarga ta'lim standartlari darajasi talablaridan oshirib bilim, iqtidor va ko'nikmalar berishni taqozo etadi.

Bu masalani ijobiy hal qilish ilg'or tajribalar, yangi pedagogik texnologiyalarni izlash ularning didaktik imkoniyatlarini sinab ko'igan holda amaliyotga tatbiq etishga bo'lgan hayotiy ehtiyojni oshirib yubordi. Bundan kelib chiqadigan amaliy xulosa ta'limiy ilg'or yangiliklarni aniqlash, ularning jamg'armalarini tashkil etish, sinab ko'rish, pedagogik amaliyotga tatbiq qilishning ilmiy xulosalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish tizimini yaratishning dolzarbligini oshirib yubordi.

Hozirgi kunda bu tizimni yaratish yo'lida bir qator izlanishlar, sag'yi harakatlar boshlab yuborilgan.

Yuqorida tag'kidlanganidek, Davlat ta'lim standartlari o'quvchilar bilim va saviyasining minimal darajasini belgilaydi. Bu darajadan yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun izlanish va tashabbus lozim. Pedagogik innovatsiyalarni yaratish va ularni boshqarish avvalambor ana shu dolzarb vazifalarni hal qilib beradi. SHu boisdan ham pedagogik innovatsiyalarni izlab topish, o'rganish, tahlillar ostida eng ko'p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotda qo'llash tartibini belgilab beradigan bir tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun, birinchidan, innovatsiya haqida aniq mag'lumotlar jamg'armasini yaratib, buni shartli ravishda innovatsiyalarni "To'plash" jarayoni deb qabul qilamiz.

Innovatsiyalarni to'plovchi vazirlik tomonidan yangi tashkil qilingan markazlar, jumladan, xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish instituti, maktabgacha ta'lim rahbarlari malakasini oshirish bo'yicha doimiy ishlovchi respublika doimiy kursi qoshidagi monitoring markazi va respublika ta'lim markazi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Mazkur ishlarni boshqaruvchi Davlat ta'lim standartlari monitoringi maktab pedagoglar kengashlari, metod birlashmalari, tuman (shahar) pedagogik xalq ta'limi bo'limlari kengashlari, viloyat malaka oshirish institutlarida o'rganib to'plangan pedagogik innovatsiyalarni o'z vaqtida "Tanlovchi" larga yetkazish yoki ayrimlarini to'g'ridan-to'g'ri "qo'llovchi" larga yo'llashni muvofiqlashtirib boradi.

Pedagogik innovatsiyalarni tanlashda amaliy ish olib boruvchi "Pedagogik texnologiyalar markazi" quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mag'lumotlarning yo'nalishini aniqlaydi;
- joriy qilish va qo'llashda ilmiy-metodik jihatdan yordam beradi;
- metodik qo'llanma, dastur va metodik tavsiyalarni nashrga tayyorlaydi va pedagogik matbuotga uzatadi;
- reyting tizimi, o'quvchilarni maktabga tayyorlash, Davlat ta'lim standartlarini joriy qilishdagi ilg'or tajribalar majmuasini yaratadi;
- xorijiy davlatlarning ta'lim sohasidagi tajribalarni o'rganadi, taqqoslaydi va tavsiyalar tayyorlaydi;
- amalga tatbiq qiluvchilarni o'qitadi, malakasini oshiradi, tajriba almashuvlar tashkil qiladi;
- pedagogika sohasidagi olimlar, ilmiy izlanuvchilar bilan hamkorlik ishlarini olib boradi;
- innovatsiyalarning qo'llanilishini dinamik ravishda kuzatib boradi;
- innovatsiyaga oid respublika ilmiy-amaliy kengashlari, konferensiyalarini o'tkazadi;
- malaka oshirish institutlari, tuman metodika va maktab pedagogik kengashlarini yangi ta'lim axborotlari bilan tag'minlab boradi.

Pedagogik innovatsiyalarni qo'llash bilan uni to'plab, ilmiy jihatdan xulosalar tayyorlovchi bo'g'in o'rtasidagi "Pedagogik matbuot" asosan nashr ishlari, ommalashtirish, keng pedagogik jamoalar, ilmiy-pedagogik xodimlarga ularni yetkazish, xodimlarning taklif va mulohazalarini olish, tajriba-sinov xulosalari asosida innovatsiyalarni yanada takomillashtirish ishlari bilan shug'ullanadi.

O'ylaymizki, ta'lim texnologiyasi, pedagogik innovatsiyalarga bunday tizimli yondashuv davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishda o'z samarasini ko'rsatadi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlashda mag'lum mezonlarga asoslanish kerak. Bunda eng muhim mezon o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatida qo'llaydigan ta'lim-tarbiyaning yangi shakli, metod va usulidir. Bu mezon ilg'or o'qituvchining oddiy o'qituvchilardan ajratadigan eng muhim belgidir. O'qituvchi qo'llaydigan yangilik turlicha: masalan, ta'lim yoki tarbiyaning yangi mazmuni, shakli, metodi, pedagogik mehnatning eng tag'sirchan, takomillashtiruvchi yo'llarini belgilashdan iborat bo'lishi mumkin.

Ilg'or pedagogik tajribani ifodalovchi yana bir mezon uning yuqori natijaga erishishi uchun zamin hozirlashidir. Bunda o'quvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinishi zarur. qo'yilgan bahoga o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarning soni emas, ularning o'qituvchilarni inson sifatida shakllanishiga tag'sirining mezoni sifatida qarash lozim. Bundan tashqari, ilg'or pedagogik tajribaning qulayligi va tejamliigi hisobga olinishi lozim. Chunki yuqori natijaga erishishda o'quvchilar va o'qituvchilarning vaqtini tejash, ularni toliqtirishdan asrash ham muhimdir.

Ilg'or pedagogik tajribaning o'z-o'zidan emas, balki ommaviy tajriba, shakllangan tajribalar, boshqa o'qituvchilarning ish uslubi bilan vorislik asosida tarkib topishi uning tag'sirchanligini oshiradi va tarqalishini osonlashtiradi. Bu mezonlar ilg'or pedagogik tajribalarni oddiy tajribadan ajratish va uni avaylab yoyishga yordam beradi.

Ilg'or tajribalarni faqat viloyat yoki respublika bo'ylab izlab yurish shart emas. Har bir pedagogik jamoada o'z izlanishlari bilan boshqalardan ajralib turadigan pedagoglar bo'ladi. Bu esa pedagogik jamoadagi muhitga ko'p jihatdan bog'liqdir. SHu muhitni mo'tadillashtirib, kerakli yo'nalishga burib yuborishda maktab rahbarlari, maktab metodika kengashining ham o'ziga xos ulushi bo'lishi tabiiy.

Pedagogik texnologiyani egallashdagi ikkinchi muhim bosqich o'qituvchilarimizning pedagogik mahoratining muhim tarkibiy qismi hisoblangan pedagogik texnikani egallashdir.

Pedagogik mahorat o'z ichiga pedagogik texnikani oladi. Pedagogik texnika o'z navbatida o'qituvchiga ta'lim-tarbiya faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar mazmunini o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnikaning yana bir muhim tarkibiy qismi pedagogning mimik, pantomimik harakatlaridir. Aniq imo-ishora, yuz,ko'z, gavda harakati, Ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik tag'sir ko'rsatishda so'z bilan tushuntirishga qaraganda ancha samarali muomala vositasi bo'la oladi.

Pedagogik texnikani egallash o'qituvchining eng yaxshi tarbiyaviy tag'sir ko'rsata olishini tag'minlaydi. U o'qituvchining kuchini, vaqtini tejab, ijodiy ishlashi uchun sharoit yaratadi. Pedagogik sezuvchanlik va fahm-farosat ham pedagogik mahoratni egallashda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik mahorat pedagogik texnikaning eng muhim, nozik qismi hisoblangan so'z bilan tag'sir ko'rsata olishni egallashni taqozo qiladi.

A.S.Makarenko "Mening tajribam haqida" maqolasida shunday yozgan edi: "Men bu yoqqa kel deb aytishning 15 - 20 xil ohangini, yuz, gavda, ovoz tuzilishidan 20 xil nozik farqlar bera bilishni o'rganib olganimdan keyingina haqiqiy murabbiyga aylandim".

Pedagogik texnologiya pillapoyalari sari intilayotgan o'qituvchi keyingi bosqich - pedagogik ijod qilishni bilishi kerak. Pedagogik ijod - fan va sang'atning yaxlitligidan iborat faoliyat. Pedagogik ijod faoliyat sifatida yangilik yaratish bo'lib, o'zining takrorlanmas ijtimoiy mohiyati bilan ajralib turadi. Pedagogik ijodning o'ziga xosligi, takrorlanmasligi shundaki, uning mahsuli sifatida inson shaxsi shakllanadi.

Pedagogika fanida amaliy faoliyatni ilmiy ijoddan farq qilmoq kerak. Ilmiy ijod jarayonida ta'lim-tarbiyaning avval nomag'lum bo'lgan yangi qonuniyatlari ochilib, yangicha nazorat va uslubiy yechimlar ishlanadiki, buning oqibatida hozirgi zamon maktabining murakkab muammolari yechiladi.

Haqiqiy pedagogik ijodni yangilik ketidan quvish, unga ko'r-ko'rona ergashish, uni bayroq qilib olish bilan almashtirish mumkin emas. Bu yangilik yaratish emas, balki yangilik soyasiga yashirinishdir.

Masalan, bir vaqtlar, sobiq sho'rolar davrida Lipesk, Rostov "tajribalari" ketidan quvish hollari bo'lgan edi. Yoki o'zlashtirishni ko'tarish uchun "2"siz o'qish davrlarini eslaylik. Biz maktablarimizda optimallashtirishni qo'llash kabi "yangilik"ka intilish, uni bayroq qilib olib, ta'lim-tarbiyani mag'lum andozaga solishlarini o'z boshimizdan kechirdik. Bunday "yangilik"da uning ayrim belgilari, tomonlari ajratib olinib, asos, mohiyati, g'oyasi tushunilmaydi. Oqibatda bu kutilgan natijani bermaydi.

Kasbiy faoliyatlarni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, har qanday faoliyat yo sang'at, yo texnologiya darajasida bo'lishi mumkin.

Hozirgi pedagogik texnologiya tushunchasi keng o'qituvchilar ommasining ijodiy faoliyatining mahsulidir. Faqat pedagogik texnologiya tushunchasini to'liq ishlab chiqib, uning ilmiy mohiyatini fahmlab o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish lozim. Pedagogik texnologiya izchil va ketma-ket amaliy faoliyatda, ta'lim,-tarbiya jarayonida avvalgi rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirishdir. Har qanday ta'lim-tarbiya jarayoni mag'lum pedagogik tizimda amalga oshadi.

Pedagogik texnologiya mag'lum loyihani pedagogik tizimda amaliyotga qo'llashdir. Pedagogik tizim deganda biz bir-biri bilan bog'liq vosita, uslub va jarayonlarning inson shaxsining shakllanishiga tag'sir ko'rsatishini tushunamiz. Pedagogik tizimda 2 ta narsa muhimdir. Buning maqsad va vazifasi hamda bu maqsad va vazifani amalga oshirish texnologiyasi.

Agar biz pedagogik texnologiyani ta'lim jarayonida, yag'ni didaktik tizim misolida ko'radigan bo'lsak, didaktik tizimda maqsad muhim bo'lib, unga erishish mag'lum sharoit va o'quvchii faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Har qanday didaktik vazifa unga mos texnologiyani amalga oshirish shakli, jarayoni va o'qituvchi mahoratining yaxlitligi oqibatida amalga oshiriladi. Biz nega bugun pedagogik texnologiya to'g'risida fikr yuritmoqdamiz?

**Birinchi**dan, pedagogik texnologiya yordamida ta'lim jarayonidagi xato-kamchiliklar, mavhumliklarning oldini olish va avvaldan ta'lim jarayonini loyihalashtirib, uni birin-ketin voqelikka aylantirish asosida takomillashtirish masalasi yechilishi kerak.

**Ikkinchi**dan, uzoq vaqtdan beri qo'llanilib kelinayotgan har bir darsni oddiy uslubiy jihatga ko'ra ishlab chiqish o'rniga pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yaxlit yondashib, uni avvaldan loyihalashtirish o'quvchi bilish faoliyatining tuzulishi va mazmunini belgilashga asos bo'ladi.

Bu, ayniqsa, hozirgi yangi pedagogik axborot vositalari - dasturlashgan ta'lim, pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish maktablarimizga kirib kelayotgan sharoitda muhimdir.

**Uchinchi**dan, pedagogik texnologiyaning muhim xususiyati maqsad qo'ya bilishdir. Avvallari bu masala ta'lim jarayonida uncha muhim emas edi. Hozir ta'lim jarayonini texnologiya darajasiga ko'tarishda taxminiy, bo'lar-bo'lmas natijadan ko'ra aniq maqsad qo'yish muhimdir. Bu masala ikki jihatdan zarurdir, diagnostik maqsad qo'yib o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishini to'g'ri nazorat qilish va o'quvchi shaxsining rivojlanishini tag'minlashdir.

**To'rtinchi**dan, pedagogik texnologiya pedagogik tizimni loyihalashtirish sifatida ta'lim jarayonining yaxlitligini uning maqsad, vazifasi, amalga oshirish shakllarini, uslublarini hamda o'quvchilar faoliyatini boshqarish bilimni nazorati va tekshirishning uzviylikini tag'minlaydi. Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiya sifatida qarash undagi formalizm, ayrim eskigan shakl va uslublarga sajda qilmaslikka, yangilikka, ijodga intilishga zamin hozirlaydi. SHunday qilib, pedagogik texnologiya - ta'lim-tarbiya jarayonini mazmunli amalga oshirish texnikasidir. Pedagogik texnologiya qachon paydo bo'ldi, u qachondan beri qo'llanmoqda, degan savol tug'ilishi mumkin.

Pedagogik texnologiya ta'lim-taibiyaning hamma bosqichlarida turlicha holda mavjud bo'lgan. Bu turli uslubiy ishlanmalar, fanlar bo'yicha o'quv-tematik, kalendar darslarni rejalashtirishda, darslik va uslubshunoslik, yag'ni o'qitish metodikasida ham pedagogik texnologiya mavjud edi. Hozir milliy maktab sharoitida gap uni ko'r-ko'rona tushunmasdan, qo'llashda ilmiy asoslangan darajaga ko'tarish ustida borayotir.

Pedagogik texnologiyaning shakllanishi. Biz umumiy holda uning shakllanish bosqichlarini bayon qilamiz:

**Birinchi bosqich** - o'quvchilarning bo'lajak faoliyatlarining tahlili. Ularning maktabni bitirgandan keyin o'rta maxsus yoki oliy o'quv yurtlarida o'qishi yoxud kasbiy faoliyatlarining tahlili.

**Ikkinchi bosqich** - shu tahlildan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyani ishlab chiqib, unga ta'limning har bir bosqichida, sinfda o'quv fanlarining mazmunini belgilash. Ta'limni diagnostik asosda maqsadini jamiyat manfaatlari nuqtai nazardan belgilash.

**Uchinchi bosqich** - belgilab olingan ta'lim mazmuni asosida o'quvchilarning o'quv yuklamasi, kerakli vaqt meg'yorini aniqlash.

**To'rtinchi bosqich** - didaktik jarayonni amalga oshirish uchun ta'limning tashkiliy optimal shakllarini tanlash va shunga muvofiq o'qitish vositalarini aniqlash.

**Beshinchi bosqich** - didaktik maqsadni amalga oshirish uchun o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda mavzular, aniq darslar bo'yicha uslubiy ishlanmalar ishlab chiqish.

**Oltinchi bosqich** - ta'lim maqsadi asosida o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga joriy qilish.

**Ettinchi bosqich** - o'quvchilarning belgilangan o'quv materiallarini o'zlashtirishlarini, bilim saviyalarini nazorat qilish va o'zgartirishlar kiritish.

**Sakkizinchi bosqich** - o'quv mashg'ulotlarining mazmuni va tarkibini ishlab chiqish, shu asosda dars va uy topshiriqlarini optimal rejalashtirish.

**To'qqizinchi bosqich**- yuqoridagilardan kelib chiqib, loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini sinovdan o'tkazish.

Bu bosqichlar o'quv jarayoni texnologiyasini ishlab chiqishning ketma-ketligi (algoritmi)dir. Biz o'qituvchilar pedagogik mahoratining texnologiya darajasiga ko'tarilishi bosqichlarini hamda uning ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy xususiyatlari asosida shakllanish ketma-ketligi (algoritmi)ni keltirdik.

Bularning hammasi uning nihoyatda qiyin, murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini ko'rsatadi. endi shulardan kelib chiqib, pedagogik texnologiyaga tag'rif bersak bo'ladi. Pedagogik texnologiya o'qituvchi pedagogik mahoratining yuksak cho'qqisi bo'lib, ta'lim-tarbiyaning har qanday murakkab vaziyatida ham aniq qo'llaniladigan usul, vositalarining majmuidir.

O'qituvchilarimiz qolipga tushgan 5 bosqichli dars bilan birga ta'limning darsdan tashqari, o'qituvchilar tajribasida nostandart darslar deb nom olgan shakllari: mag'ruza, amaliy mashg'ulotlar, musobaqa-munozara, mustaqil ishlash, konferensiya, sayohat, mushoira kabi shakllaridan ham keng foydalanishlari lozim. Buning uchun o'qituvchilar ta'limning darsdan tashqari har bir shaklining tuzilishi, bosqichlarini ang'anaviy darsdan ustunligini amalda sinab ko'rib, tag'sirchan shaklini aniqlashlari zarur. Bu, albatta, o'z-o'zidan bo'lmaydi, buning uchun ta'lim nazariyasini, uning hozirgi zamon muammolarini bilish, ijod qilish, tinmay izlanish talab etiladi.

## **1.2. Maktab geografiya fanlari DTSlari va namunaviy ishchi daturlarning mazmun va mohiyati**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari birinchi darajali ehtiyojga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Uzluksiz ta'lim tizimida davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi 1998- yil 5-

yanvar qarori chiqdi va ushbu qaroriga binoan “Davlat ta’lim standarti to’g’risidagi Nizom” tasdiqlandi. Unda O’zbekiston tabiiy geografiyasi maktab geografiyasi namunaviy dasturida jami 34 soat, ikkinchi yarim yillikda o’tilishi ko’rsatilgan.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng geografiya ta’limining tuzilishida quyidagi o’zgarishlar sodir bo’ladi:

- umumta’lim va oliy maktablardagi sobiq “SSSR tabiiy geografiyasi” va “SSSR iqtisodiy geografiyasi” kurslari ta’lim dasturidan chiqarib tashlanadi;
- umumiy majburiy ta’lim 9 yilga o’tkazilishi munosabati bilan ayrim o’quv kurslarini o’rganadigan sinflar o’zgardi. V sinf dasturiga yangi “Tabiyot” kursi kiritildi. Ammo mazkur kursni o’zlashtirish murakkab bo’lganligi hamda unda tabiiy geografiya, biologiya va boshqa fanlardan bilimlar takrorlanganligi tufayli u ham 1999 yil o’quv dasturlaridan olib tashlanadi;
- boshlang’ich “Tabiiy geografiya” kursi “Materiklar va okeanlar geografiyasi” kursi bilan qoshilib VI sinfda o’rgatiladigan bo’lgan edi. Yangi dastur bo’yicha boshlang’ich “Tabiiy geografiya” kursi V sinfda, “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” VI sinfda o’rganiladigan bo’ladi. Bundan tashqari O’zbekiston va O’rta Osiyo xududidan tashqari ilgari sobiq ittifoq “SSSR tabiiy geografiyasi” kursida o’rganiladigan xududlar “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursida o’rganiladigan bo’ladi. “Jaxon ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi” kursini o’rganish X sinfdan IX sinfga o’tilishi munosabati bilan “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursidagi mamlakatshunoslik haqidagi ma’lumotlar olib tashlandi. O’zbekistondan tashqari barcha MDH davlatlari “Jaxon ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi” kursida o’rganiladigan bo’ladi;
- o’quv dasturiga tamoman yangi “Turkiston tabiiy geografiyasi” kursi (VII sinf) kiritildi. Mazkur kurs 2001-2002 o’quv yilidan boshlab “O’rta Osiyo tabiiy goeografiyasi” deb atala boshlandi;
- akademik litsey va kasb-xunar kollejlari uchun “Iqtisodiy geografiya” kursi kiritildi. Ammo uning dasturi amaliy geografiya fanining mazmunini aks ettirar edi. Natijada kursning nomi bilan uning mazmuni o’rtasida nomutanosiblik vujudga keldi. SHu munosabat bilan 2003 yildan boshlab mazkur kurs “Amaliy geografiya” kursining dasturi va darsligi qaytadan yozib nashr etildi (2004).

Hozirgi davrda geografiya ta’limi quyidagi qismlardan iborat: a) umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinflarida beriladigan geografik bilimlar; b) umuta’lim maktablarining yuqori sinflarida (V-VI, VII-VIII-IX) beriladigan geografik bilimlar; v) akademik litsey va kasb-xunar kollejlardagi geografiya ta’limi; g) oliy geografiya ta’limi; d) yordamchi maktablardagi geografiya ta’limi; ye) malakani oshirish muassasalaridagi geografiya ta’limi.

Umumta’lim maktablarining boshlang’ich sinflarida geografik bilimlar “Atrofimizdagi olam”, “7-sinf maktab geografiya darslarining ” kurslarida beriladi. Mazkur predmetlar bo’yicha o’quv mashg’ulotlari boshlang’ich ta’lim mutaxassislari tomonidan olib boriladi. Boshlang’ich sinflarda geografik bilimlar chuqurroq berilishi va o’quvchilar tomonidan oson va yaxshi o’zlashtirilishi uchun mazkur predmetlardan geograf mutaxassislar tomonidan mashg’ulotlar olib borilsa maqsadga muvofiq bolar edi.

Umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida hozirgi bitta muammo yechilmay qoldi. U ham bo’lsa “Boshlang’ich iqtisodiy geografiya” kursini maktab dasturiga kiritishdir. V sinfda boshlang’ich tabiiy geografiya kursi mavjud, ammo boshlang’ich iqtisodiy geografiya kursi mavjud emas. SHu maqsadda X.Vaxobov tomonidan “Iqtisodiy geografiya asoslari” qo’llanmasi yaratilib nashr qilindi, ammo mazkur kurs maktab dasturiga kiritilmay qolib ketdi. Mazkur kursni VIII sinfni birinchi yarim yilligida o’rganilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. CHunki o’quvchilar asosiy iqtisodiy qonunlar, tushunchalar va atamalarni o’zlashtirishgandan so’ng O’zbekiston va jaxon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o’rganishsa geografiya ta’limi jarayonini samarasi katta bo’ladi.

Uzluksiz geografiya ta'limi dasturiga binoan barcha oliy o'quv yurtlari uchun "O'zbekiston geografiyasi" kursini ta'lim dasturiga kiritish ko'zda tutilgan edi. Ammo, hamon ushbu dastur amalga oshganicha yo'q. Mamlakatimizning har bir fuqarosi oz Vatanining tabiiy sharoiti, boyliklari, aholisi va xo'jaligini bilmog'i zarur hisoblanadi. SHu munosabat bilan mazkur kursni Oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlariga kiritish bo'yicha tashkiliy ishlarni tezlashtirish lozim.

Yordamchi maktablarning VI, VII, VIII sinflari uchun X.Vaxobov va boshqalar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlab nashr etildi.

Geografiya ta'limining maqsad va vazifalari Davlat ta'lim standartlari sharxlarida aniqlab berilgan. Ya'ni geografik madaniyatni shakllantirish, geografik kartalardan moxirona foydalanishni o'rgatish, tabiat bilan jamiyat munosabatlariga kompleks yondoshishni anglatmoq va x.k.

Geografiya fani bo'yicha ta'lim standarti 2-qismidan iborat: a) ta'lim mazmunining majburiy minimumi; b) bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar. "Ta'lim mazmunining majburiy minimumi" quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqilgan: a) geografiyaning nazariy asoslari; b) geografiyaning tadqiqot metodlari; v) tabiiy va sotsial-iqtisodiy ob'ektlar; g) xodisalar va jarayonlar; d) olamni idrok etishning moddiy va ma'naviy madaniyatda ifodalanishi; ye) xudud geografik tavsifining tuzilishi. "Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar" 5 ta yo'nalishda ishlab chiqilgan: a) ayta (ko'rsata) olish; b) aniqlay (olchay) olish; v) tasvirlay olish; g) tushuntira olish; d) bashorat qila olish (P.Musaev, A.Baxromov, 1999).

Hozirgi davrga kelib geografiya ta'limining barcha soxalari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratilib nashr qilib bo'lindi. Ammo oliy geografiya ta'limida mazkur muammo xamon dolzarbligicha qolmoqda.

O'quv vositalarini yaratish bo'yicha ham anchagina ishlar qilindi. O'zbekistonning va Jaxonning geografik kartalari nashr qilindi, siyosiy globus ishlab chiqildi ammo tabiiy globus xamon tayyorlangani yo'q. Oliy o'quv yurtlari uchun geografik atlaslar xamon ishlab chiqilgani yo'q. O'zbekiston atlasini yaratish bo'yicha ishlar endi boshlandi.

Geografiya ta'limida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tish muammosi hozirgi davrning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

XX asrga kelib fan va texnikaning yuksak darajada rivojlanishi munosabati bilan ta'lim tizimida ham qator muammolar vujudga keldi. Bunday muammolarga avvaldan kafolatlangan natijalarni olishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini loyixalashtirish va amalga oshirish kiradi.

SHu maqsadda XX asrning 50-70 yillarida AQSH da B.Blum, D.Kratvoll, N.Gronlund, Dj.Kerrol, Dj.Blok, A.Anderson va boshqa olimlar tomonidan rejalashtirilgan natijalarni olishni kafolatlaydigan, qayta takrorlanadigan pedagogik tsiklni oz ichiga olgan texnologiyalar ishlab chiqildi. Mazkur texnologiyalar so'ngra Yevropada qo'llanila boshlandi. Pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy jurnallar nashr qilina boshlandi.

Rossiyada pedagogik texnologiyalar XX asrning 90-yillaridan boshlab tarqala boshladi. Mazkur texnologiyalar soxasida B.P.Bespalko, M.V.Klarin, V.G.Guzeev, T.S.Nazarov, N.D.Nikondorova, N.F.Kostenko, G.Ilyin, V.R.Imakova, Ye.I.Bulin-Sokolova, Yu.G.Molokova, O.Epischeva, P.K.Selevko va boshqalar ulkan ishlarni amalga oshirishdi. "SHkol'nyye texnologii" jurnali nashr qilina boshlandi. Yangi pedagogik texnologiyalar ta'limning barcha bosqichlarida (maktabgacha ta'lim, boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus va Oliy ta'lim) qo'llanila boshlandi.

O'zbekistonda pedagogik texnologiyalar soxasida 2000 yildan boshlab yirik ilmiy ishlar va o'quv qo'llanmalari nashr qilina boshlandi. Bu soxada B.P.Farberman, N.Sayidaxmedov, F.Jumabaev, A.Ochilov, L.Golish, B.Ziyamuxammedov, SH.Abdullaev, J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov va boshqalar katta ishlarni amalga oshirishdi. Ayniqsa Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining "Axborot texnologiyalari va masafaviy o'qitish" markazi tomonidan bu soxada ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur markaz tomonidan har oyda ta'lim texnologiyalariga bag'ishlangan "Axborotnoma" nashr qilinadi. Mazkur

axborotnomada jaxondagi rivojlangan davlatlarni ta'lim texnologiyalari muammolariga bag'ishlangan maqolalar e'lon qilinadi.

Geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash va geografik ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha I.V.Dushina, V.T.Dmitreva, A.N.Vorob'ev, O.A.Ushakova, V.N.Novenko, I.I.Barina, X.Vaxobov va boshqalar ish olib borishmoqda.

Geografiya ta'limida ko'pgina o'qitish texnologiyalari ilgaritdan qo'llanilib kelinadi, ayrimlari endi qo'llanilmoqda. I.V.Dushina (2004) geografiya ta'limida qo'llaniladigan texnologiyalarni quyidagi turlarga bo'lgan: mantiqiy tayanch konspektlar texnologiyasi; o'quv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi; o'quvchilarni o'quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi; kommunikativ-aloqa texnologiyasi; o'quvchilarni loyihalar tuzish faoliyati texnologiyasi.

Hozirgi paytda geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashni ilmiy-metodik asoslari quyidagi yo'nalishlarda ishlab chiqilishi lozim.

Geografiya ta'limini maqsadlarini aniqlash. Geografiya ta'limining maqsadlari va vazifalari mavjud ta'lim standartlarida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Standartlar bo'yicha har bir geografiya predmeti bo'yicha ta'lim maqsadlari va vazifalari ishlab chiqilgan. Geografiya ta'limining asosiy ko'rsatkichlarini B.Blumning taksonomik birliklari orqali ifodalansa ular aniq bir o'lchamlarga ega bolar edi. Mazkur muammo soxasida hozircha geografiya ta'limida sezilarli ishlar olib borilayotgani yo'q.

Geografiya ta'limida quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin:

**Kartografik texnologiyalar.** Geografiya ta'limining barcha bosqichlarida qadimdan qo'llanilib kelinadi. Kartografik materiallar ko'pincha darsga qoshimcha korgazma sifatida ishlatiladi. Alohida kartografik texnologiyalar yordamida hozircha dars o'tilmaydi. Kartografik texnologiyalarni qo'llash quyidagi bosqichlardan iborat:

a) ilk, sodda kartografik tushunchalarni shakllantirish bosqichi. Mazkur bosqich umumta'lim maktablarida 5-sinfda "Boshlang'ich tabiiy geografiya" kursida, Oliy o'quv yurtlarida esa topografiya va kartografiya kurslarida beriladi. Bundan xarita, miqyos (masshtab), shartli belgilar, geografik koordinatalar haqida tushunchalar, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Mazkur bosqich oz navbatida quyidagi texnologiyalardan iborat: miqyos (masshtab) texnologiyasi; shartli belgilar texnologiyasi; geografik koordinatalar texnologiyasi;

b) kartografik dars texnologiyasi – mazkur darslarda tola kartografik texnologiyalarni qo'llash asosida o'tilishi mumkin. Mazkur texnologiyalarni o'rta va Oliy ta'limda regional tabiiy va iqtisodiy geografik predmetlarini o'rganishda qo'llanishi mumkin (materiklar va okeanlar, o'lkalar, davlatlar, ma'muriy birliklarning tabiiy va iqtisodiy hamda siyosiy geografik sharoiti).

**O'quv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi** (Dushina, Gerasimova, Neklyukova, G'ulomov, Qurboniyozov, Vaxobov va boshqalar). Mazkur usul ham geografiya ta'limida ilgaritdan qo'llanilib kelinadi. Ushbu texnologiya geografik borliqni, xodisa va jarayonlarni tavsiflash tartibi, qoidasi, algoritmlari sifatida ifodalangan. Mazkur texnologiya har bir darslik uchun metodik qo'llanma sifatida kengroq tarqalgan. Masalan, har bir sinf bo'yicha nashr qilingan darsliklar, albatta metodik qo'llanmasi bilan birga nashr qilinmoqda. Unda geografik ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

**Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi** (Episheva, Dushina). Ushbu texnologiya ham geografiya ta'limida ilgaritdan qo'llanilib kelinadi. Ushbu usulni qo'llaganda sinf o'quvchilari qobiliyatiga va qiziquvchanligiga ko'ra ma'lum bir guruhlariga bo'linadi. Bunda o'quv maqsadlari tabaqalashtiriladi, har bir guruh uchun o'quv jarayonini ta'minlaydigan texnologiya ishlab chiqiladi. Mazkur texnologiyani regional geografiya fanlarini o'rganishda qo'llash yaxshi natija beradi. Masalan, Yevropadagi rivojlangan davlatlar iqtisodiy geografiyasini o'rganishda har bir guruh ma'lum bir davlatni o'rganishi mumkin.

**O'quvchilarni o'quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi** ( Suxov, Rom, Dronov, Dushina va boshqalar). Bunda o'quv faoliyati o'quvchilarni faolligini oshirishni maxsus, alohida shakli sifatida koriladi. Ushbu texnologiyada o'quvchilar bilimlarni ma'lum bir o'quv topshiriqlarini bajarish orqali olishadi. Ushbu texnologiyani qo'llash quyidagi bosqichlardan

iborat: ma'lum bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha topshiriqlar tizimi tuziladi ( masalan, SHimoliy Amerika iqlimi; Xitoyning qishloq xo'jaligi; Yaponiya transporti va xokazolar). O'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish loyixasini ishlab chiqish; mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimini tekshirish uchun test topshiriqlarini tuzish; dars o'tish, o'quvchilar bilimini baxolash. Mazkur texnologiyalarga o'quvchilar faoliyatini faollashtirish texnologiyasini ham kiritisa bo'ladi. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish geografik o'yinlar texnologiyasi, muammoli o'qitish texnologiyasi, o'quv materiallarini chizmal, belgili va kartografik modellardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Geografik o'yinlar texnologiyasi geografiya ta'limida juda keng qo'llaniladi va o'zining qiziqarliligi, bilimlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi bilan ajralib turadi. Geografik o'yinlar texnologiyasi barcha geografiya predmetlarini o'rganilishda qo'llanilishi mumkin. Muammoli o'qitish texnologiyasi ham geografiya ta'limida yangi emas. U ilgari qo'llanilib kelinadi. Bunda asosiy vazifa bo'lib ma'lum bir vazifa bo'yicha muammoli savollar yoki topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va uni o'quvchilarga tushuntirishdir. Masalan, rel'efni shakllanishi va rivojlanishi; atmosfera yog'inlarini hosil bolishi; qishloq xo'jaligini tabiat zonalari bo'yicha ixtisoslashuvi, sanoat tarmoqlarining joylashuvi va x.k.

**Modul texnologiyasi** geografiya ta'limida endi rivojlanib kelmoqda. Darslik, bo'lim, mavzu ayrim mavzularga bo'linadi. Masalan, geografik koordinatalar mavzusini quyidagi modullarga bolishimiz mumkin: ekvator, bosh meridian, paralellar, meridianlar, daraja tori, geografik kenglik, geografik uzunlik, geografik koordinatalar. Bunda o'quvchilar albatta bilishi shart bo'lgan bilimlarga parallel, meridian, kenglik, uzunlik, geografik koordinata kiradi. Mazkur texnologiyani geografiya predmetlarining barchasida qo'llash mumkin. Mazkur texnologiya o'qituvchi va o'quvchini birgalikdagi faoliyatini yengillashtiradi va jadallashtiradi.

**Alternativ texnologiyalarni** juda ko'p variantlari mavjud, ulardan geografiya ta'limida ustaxona texnologiyasidan foydalanish mumkin (Ko'llen, Okunev). Bunda usta (o'qituvchi) kerakli ma'lumotlarni o'quvchilarga beradi va uning asosida o'quvchilar ozlarining bilimlariga tayangan holda topshiriqni bajarishadi. Masalan, o'qituvchi bergan quyidagi materiallar asosida (yillik o'rtacha harorat, yildagi eng baland va eng past haroratlar, yog'in miqdori va uning qaysi faslda yog'ishi, shamollar, havo massalari) iqlim turi, yillik havo harorati farqi, iqlim mintaqasi va u tarqalagan hududlarni aniqlashlari lozim.

**Integratsiya texnologiyalari.** Geografiya ta'limida integrativ predmetlarini o'rganishda qo'llaniladi. Geografiya ta'limida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'tiladigan "Amaliy geografiya" predmeti integrativ predmet hisoblanadi. Unda tabiiy geografik, ekologik, iqtisodiy geografiya, siyosiy geografiya va geosiyosiy bilimlar majmuasi berilgan. Bunda geografik qobiqdagi tabiiy, ijtimoiy –iqtisodiy, ekologik va geosiyosiy tizimlar haqida yaxlit bilimlar berilgan. SHuning uchun mazkur kursning vazifasi geografik borliqni yaxlit tushunish va qabul qilishni shakllantirishdir.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, biz quyidagi tadbirlarni ayni paytda amalga oshirishni zarur deb hisoblaymiz.

1.Respublika umumiy o'rta ta'lim maktablarida, o'rta maxsus ta'lim maktablarida geografiya fanining mazmuni, sifati va ajratilgan dars soatlarini qayta ko'rib chiqish zarur.Geografiya o'qitish sa'viyasini takomillashtirish, uni zamon talablariga moslashtirish lozim.Geografiya asoslarini o'rganishda 5-sinfda atigi 34 soat ajratilgan.(Rossiyada 102 soat, Qozog'istonda 68 soat).

2.Umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar hamda oliy o'quv yurtlari uchun yarataytgan darslik, o'quv qo'llanmalarini tubdan isloh qilish, ya'ni dunyoni yaxlit idrok etishni, geografik qamrovda mushohada yuritishi, geografik madaniyatni shakllantiruvchi, tevarak-atrofnii idrok qilishning muhim vositasi va uslubi xaritadan mohirona foydalana bilishi, har qanday shaxs tabiat va jamiyat bilan munosabatining eng oqil me'yorlari amal qilishini, buning muhim sharti esa ularga kompleks yondashish ekanligini anglatuvchi mazmun-mohiyatga ega bolishi kerak.

Maktab geografiya ta'limining rivojlantirish mutasaddi xodimlar bilan birga, ko'p jihatdan geografiya fani o'qituvchilarining kasbiy mahorati, pedagogik tajribasi, bilimi va sa'viyasi hamda ota-onalarning oz farzandlari tarbiyasiga bevosita bog'liqdir.

### **1.3. Maktab geografiya ta'limida sinfdan tashqari ishlar, ularning turlari**

Darsdan tashqari ishlar, uy ishlari (vazifalar)ga qaraganda murakkabroqdir. Ularni amalga oshirish uchun tegishli o'simliklar, maxsus asboblardan va boshqa jihozlardan talab qilinadi. Darsdan tashqari ishlarga: tirik tabiat burchagidagi, o'quv-tajriba maydonchasidagi va tabiatda yozgi topshiriqlar bo'yicha bajariladigan ishlar kiradi. Bu ishlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida ularning bilishga qiziqishlarini uyg'otish, shuningdek, maktab dasturini kengaytirish hamda to'ldirish maqsadida amalga oshiriladigan darsdan chetdagi ko'pchilik faoliyat shakli bo'lgan sinfdan tashqari ishlar nomini oladi.

Geografiya xonalarida va tirik tabiat burchagida o'tkaziladigan ishlar uchun o'quvchilarga topshiriqlar darslarda kursning barcha mavzulari uchun o'quv yili davomida berib boriladi. Geografiya fanlarining o'qitilishida o'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning majburiy bo'lmagan ko'ngilli shakllari: individual ishlar, sinfdan tashqari, "Yosh tabiatshunoslar" to'araging ishi, ommaviy kechalar, ijtimoiy foydali ishlar keng qo'llaniladi. Sinfdan tashqari ish o'quv materialini asosida va unga bog'liq holda uyushtiriladi. Biroq uning mazmuni darsni takrorlamaydi. Dastur doirasi bilan cheklanmaydi, ammo uni to'ldiradi va tabiat haqidagi fanning qiziqarli hamda kerakli tomonlarini ochib beradi.

Geografiya bo'yicha sinfdan tashqari ishlar darslarda olingan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va konkretlashtirish, tabiatni o'rganishga qiziqish uyg'otish, o'quvchilarning faolligi hamda mustaqilligini rivojlantirish, vaqtni rejalashtirish imkoniyatini beradi. Sinfdan tashqari geografiya ishlari tarbiyaviy ahamiyatga ham ega, chunki bu ishlar o'quvchilarning xulq-atvoriga ijobiy tag'sir ko'rsatadi. Ularning moddiy dunyoga qarashi va mehnat madaniyati shakllanadi, bilishga qiziqishi, mustaqil kuzatish ko'nikmalari rivojlanadi, jamoatchilik hissinin va tabiatga muhabbatni teranlashtiradi. Geografiya bo'yicha yo'lga qo'yilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biridir.

Bolalarning kuzatishlari va o'qituvchining tushuntirishlari bilan olib boriladigan qishloq xo'jaligi bo'yicha amaliy ishlari tabiatni boshqarish, uni inson manfaati uchun o'zgartirish to'g'risidagi ta'limot asoslarini tushunib olishlariga yordam beradi. Bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatlari ularni mehnatga o'rgatadi va vatanparvarlik tarbiyasiga ko'maklashadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning barcha turlari bir-biriga bog'liq bo'lishi, biri ikkinchisini to'ldirishi kerak. o'simlik va hayvonlar bilan ishlashga darslarda vujudga kelgan qiziqish sinfdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlanishi mumkin, ayniqsa, geografiya bilan qiziqqan o'quvchilar yosh tabiatshunoslar to'aragi mashg'ulotlariga qatnashishlari mumkin. o'quvchilarda tabiiy obektlarni kolleksiyalashtirishga moyillikni, hayvonlarga mehri payqagan o'qituvchi ularning qiziqishlariga qarab mashg'ulotlar topishi, tabiat to'g'risidagi fanni chuqurroq o'rganish istagini rivojlantirishi zarur.

**Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni.** Geografiya bo'yicha sinfdan tashqari ishlarga tabiatni o'rganish va muhofaza qilish, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashg'ulotlar kiradi. Bu mashg'ulotlar darslarni takrorlamasligi va faqat darslarda olingan bilimlarga asoslanishi kerak. Bolalar eg'tiborini tabiat, shuningdek, maktab jonli burchagi va o'quv-tajriba maydonidagi kuzatishlarga qaratmoq; ko'cha va maktabni ko'klamzorlashtirish, qushlarni muhofaza qilish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil qilmoq lozim. Tabiatdagi amaliy ishlar kuzatishlar va tegishli kitoblarni o'qish bilan biiga olib borilishi kerak.

Sinfdan tashqari ishning jadal borishi uchun uni tashkil etish shakllarini puxta o'ylab chiqish zarur. Sinfdan tashqari ishlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

1- guruhga ko'plab o'quvchilarni qamrab oluvchi ommaviy ishlar, tadbirlar; 2- guruhga cheklangan o'quvchilar doirasida olib boriladigan to'arak ishlari; 3- guruhga tabiatni o'iganishga qiziqqan ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar kiradi.

**Individual ishlar.** Tabiatni bilishga moyillik yoki hech bo'lmaganda qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilar bilan geografiya bo'yicha individual ishlar olib boriladi. Bolalarda tabiatga qiziqish vujudga kelishida o'qituvchining shaxsi, uning tabiatga muhabbati va munosabati, o'quvchilarni ergashtira va qiziqтира olish uquvi katta rol o'ynaydi. Uning 1- sinfda kuzatishlarni qanday tashkil qilishiga, bu ishning zarurligi va muhimligini qanchalik asoslashiga, geografiyani o'qitishni qanday yo'lga qo'yishiga o'quvchilarning bilim sifatigina emas, balki darsdan tashqari vaqtlarda geografiya ishlari bilan ishlashga istaklari ham bog'liqdir.

Individual topshiriqlarni bajarish tadqiqiy ish ko'nikmalarini shakllantiradi, bolalarning bo'sh vaqtlarini foydali va qiziqarli ishlar bilan to'ldiradi. Individual topshiriqlarning mazmuni o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. o'quvchini nimaiki qiziqtirmasin - xona o'simliklarini parvarish qilishmi, hayvon va o'simliklar tasvirlangan marka yoki otkritikalarni to'plashmi, gerbariy tuzishmi, tabiatda tajribalar va kuzatishlar o'tkazishmi - u o'qituvchi tomonidan mag'qullanishi va quvvatlanishi lozim. Individual topshiriqlar o'quvchilarning qiziqishlariga qarab tanlanadi, ammo topshiriqlarning mazmuni ularning bajarilishini tashkil qilishi va metodikasi o'qituvchi tomonidan sinchiklab o'ylangan bo'lishi kerak (o'iganish obekti, kuzatish yoki ish joyi belgilanadi, reja tuziladi). Ishning oxiriga yetkazilishi va unga qiziqishni yo'qotmasligi uchun individual topshiriqlar bajarilishida o'qituvchi o'quvchilarga muntazam yordam ko'rsatib borishi zarur.

Individual topshiriqlarning bajarilishini tekshirib borish kerak, ish oxirida uning natijalari bilan o'quvchilarni tanishtirish zarur. oshirish zarurligini tushunganlaridagina tag'minlanadi. SHunga ko'ra bajarilgan ish to'g'risida vaqt-vaqti bilan (geografiya darslarida yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda) hisobot tinglab borish foydalidir. Bunda har bir individual ishning natijalari barcha o'quvchilarning boyligi bo'lib qoladi. Bunday hisobotlar sinfdan tashqari ishlarga qiziqishni rag'batlantiradi, o'qituvchining tabiatga oid bilimini to'ldiradi va kengaytiradi, ularni sinfdan tashqari ishlarning barcha shakllarida faol qatnashishlariga olib keladi.

**Guruh mashg'ulotlari.** Geografiya bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning guruh bo'lib o'tkaziladigan shakllaridan biri to'arak ishdir. U muayyan ishtirokchilar doirasini qamrab oladi va tabiatni chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi. To'arakka ag'zo bo'lish ixtiyoriydir, ammo unga kiruvchi o'z zimmasiga aniq reja bo'yicha ishlash va boshlagan ishini oxiriga yetkazish majburiyatini oladi. Rejaga o'quvchilar bajarishga kuchi yetadigan ishlar kiritilishi lozim. o'qituvchining asosiy vazifasi - amaliy natijalar beravchi faol ishlarni tag'minlashdir. Ishda har xil: o'qituvchi va o'quvchilarning tabiiy yoki tasviriy ko'igazmali qurollarni namoyish qilish bilan og'zaki bayon qilishi, amaliy o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnati va boshqa metodlar to'g'ri uyg'unlashtirilishi lozim.

To'arakni muvaffaqiyatli ishlashida mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorlanish katta ahamiyatga ega. Birinchi mashg'ulot oldidan uni o'tkazish vaqti to'g'risida eslatish, to'arak vazifalari bilan o'quvchilarni tanishtiruvchi, kirish suhbatining mazmunini barcha tafsilotlari bo'yicha o'ylab chiqish zarur. To'arakning ish rejasini tuza turib, mo'ljallangan mavzuni o'quvchilar bilan muhokama qilish va ularning taklif-istaklarini hisobga olish kerak. To'arakning birinchi mashg'ulotida uning faollari yoki kengashi (sardori, uning muovuni, muharririyat ag'zolari) saylanadi va nomi ("Hamma narsani bilishni istayman", "Biz va tabiat", "Yosh tabiat-shunoslar", "Tabiatni sevuvchilar" va boshqalar) tasdiqlanadi. eng yaxshi nom uchun tanlov eg'lon qilinishi mumkin. SHuningdek, to'arakda qatnashuvchilarning xulq-atvori qoidalarini ishlab chiqish va tasdiqlash zarur. qoidalar quyidagicha: 1) ishda faol qatnashish; 2) barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish; 3) har bir ishni nihoyasiga yetkazish; 4) kuzatishlar va bajarilgan ishlar kundaligini yuritish; 5) o'rtoqlariga yordam berish; 6) mash-

g'ulotlarga muntazam qatnashish. yoki uning muovini maxsus jurnalda olib boradi. Mashg'ulotlar ikki haftada bir marta muayyan kun va soatlarda o'tkaziladi.

Birinchi mashg'ulotda faqat tashkiliy masalalar bilan cheklanmaslik kerak. o'quvchilarga kichikroq, lekin qiziqarli kirish materiali berish kerak, toki ular to'arak ishiga qiziqsinlar va nima bilan shug'ullanishlari haqida dastlabki (taxminiy) tasavvurlarga ega bo'lsinlar. Ishni diafilm, diapozitiv ko'rish, geografiya mazmunidagi ilmiy-ommabop adabiyot o'qish bilan boshlash mag'qul.

Har bir yosh tabiatshunos yoki uch-to'rt o'quvchidan iborat kichik guruh o'qituvchi yordamida o'zlari uchun muayyan mavzuni tanlaydilar. To'arak rahbarining vazifasi har bir ishtirokchini u uddalaydigan foydali mavzu bilan qiziqtirishdir. To'arakda o'tkaziladigan ish xilma-xil bo'lishi, lekin umumiy maqsadga - jonajon tabiatni o'iganishga birlashtirilishi zarur. "Hamma narsani bilishni istayman" to'araging (5-6- sinflar) ishini quyidagi reja bo'yicha tashkil qilish mumkin: 1) kirish mashg'uloti; 2) tabiatga ekskursiya ("Kuz ing'omlari") mavzusi; 3). "Jonajon o'lkaning qushlari", "Yilning har xil fasllarida o'simliklar", "Yilning har xil fasllarida hayvonlar" diafilmlarini ko'rish; 4) "Tabiat ustaxonasi", "Soat gullar, "Ularni muhofaza qilish kerak" kabi otkritkalar turkumi bilan ishlash; 5) "Oltin kuz" ertaligi; 6) "qanotli do'stlarga yordam" operatsiyasi; 7) tabiat (o'lka-shunoslik) muzeyiga ekskursiya; 8) "qizil kitoblar" to'g'risida suhbat; bu kitoblarga kiritilgan o'simlik va hayvonlarni tomosha qilish; 9) tabiatga ekskursiya (mavzu "Sehrli dorixonasi"); 10) to'arak ishlarini yakunlash.

Mashg'ulotlarda xilma-xil: o'qituvchi va o'quvchilar hikoyasi, suhbat, amaliy ishlar bajarish (kolleksiya va gerbariylar yasash, tajribalarga tayyorlanish va o'tkazish), tabiatda o'tkazilgan kuzatishlarni muhokama qilish uslublaridan foydalaniladi.

O'qitishning texnika vositalari hamda qiziqarli material to'arak ishlarining majburiy elementidir.

**Klub ishi.** Geografiya bo'yicha sinfdan tashqari ishlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari klub ishlaridan keng foydalanadilar, ularni boshqa ish shakllaridan farqi shundaki, klubda bolalar erkinroq faoliyat yuritishlari mumkin, o'zaro muno-sabatlar uchun erkin vaziyat yaratiladi, o'yinlarga ehtiyoj va qiziqish qanoatlaniriladi. Klub majlislarida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan: Bu nima? Nima uchun bu yuz beradi? qayerda buni ko'rish, bilish, o'qish mumkin? kabi savollarga mustaqil javoblar olishga o'rganadilar. Klub majlisining zarur elementlari o'quvchilarning savollari va javoblaridir, javoblar topilgan manbalarning albatta ko'rsatilishidir. Bu ish bilan barcha o'quvchilarni qiziqtirish uchun sinfga "So'rang, javob beramiz" yoki "Nimachining savollari" yozilgan quti qo'yiladi, unga savollar yozilgan varaqchalar solinadi.

Klubning navbatdagi majlisidan bir hafta oldin o'qituvchi savollarni mazmuniga qarab gurahlashtiradi, klub ag'zolari orasida taqsimlaydi va javob topishni taklif qiladi. Javoblar tayyorlash uchun o'qituvchi klub ag'zolariga mag'lumotnoma va ilmiy-ommabop adabiyotga murojaat qilishni, agar kerak bo'lsa, tabiatda yoki jonli tabiat burchagida kuzatishlar, oddiy tajribalar o'tkazishni tavsiya qiladi. Savollarga javob berishni jism va hodisalar (o'simliklar gerbariysi, hayvonlar chuchelasi yoki ularning rasmlari, diapozitiv, diafilm, tajriba va hokazolar)ni ko'rsatish bilan olib boigan mag'qul.

Klub yig'ilishi o'tkazilayotgan sinfdan burchak yoki axborot stendi (taxtasi)ni jihozlash kerak, ularda bo'lajak yig'ilishlar, ularning mavzusi, adabiyotni tavsiya qiluvchi ro'yxat to'g'risida bildirish joylashtiriladi. Bu yerda kitoblar, ko'rgazmali qurollar, tabiiy materiallardan tayyorlangan ko'rgazmalar ham qo'yiladi.

**Ommaviy ishlar.** Geografiya bo'yicha sinfdan tashqari ommaviy ishlar ekskursiyalar, tanlovlar, diapozitiv va kino-filmlarni ko'rsatish bilan birga tematik kechalar, har xil tadbirlar (qushlar kuni, gullar, daraxtlar o'tqazish, Hosil bayramlari va boshqalar)ni ham o'z ichiga oladLULardan maqsad - sinfdan tashqari ishlarga iloji boricha ko'proq o'quvchilarni jalb etish, ularda qatnashishga ishtiyoq va xohishni uyg'otish, bolalar faolligini yo'lga qo'yish, ularni ijtimoiy-foydali ishlarga yo'naltirish, bolalarda tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishdir.

Tadbirda tayyorlanish tabiat to'g'risidagi o'z bilimlarini kuza-tishlar yoki kitoblarni o'qish yordamida to'ldirish zarurati bilan bog'liq bo'lishi lozim. CHunonchi. bahor (ochiq kunlar, o'simlik va hayvonlarning uyg'onishi, qushlarning uchib kelishi) to'g'risidagi bayon (axborot)ni tayyorlash kuzatishlar va tabiatdagi bahorgi o'zgarishlar to'g'risidagi adabiyot o'qish bilan bog'liqdir. Tadbir rejada belgilangan vaqtda barcha o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkazilishi kerak (Ota-onalar ham taklif qilinishi mumkin). Uyushqoqlik, chiroyli rasmiylashtirish (bezatish), yorqin chiqish-lar shunday tadbirlarning uzviy qismlaridir. Ular ishtirokchilar xotirasida kechinmalarni saqlovchi va tabiatni o'rganish hamda muhofaza qilish bo'yicha ishlarni chuqurlashtirish uchun rag'bat bo'lib xizmat qiluvchi hissiy ko'tarinkilikni vujudga keltiradi.

## II-BOB MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA EKSKURSIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH YO'LLARI VA USULLARI

### 2.1. Maktab geografiya darslarida “ekskursiya darslari”ni tashkil etishning asosiy uslublari va ularning turlari

Ma'lumki, geografiya darslarida o'qituvchi barcha o'qitish metodlarini: og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llaydi. U o'simlik va hayvonlarni namoyish qiladi. Amaliy ishlarni bajarish yo'li orqali o'quvchilarni ayrim organizmlarning tashqi va ichki tuzilishi bilan tanishtiradi.

Avvalgi boblarda yozganimizdek, sinfdagi darsda hayoti uzoq kuzatishni talab qiluvchi o'simlik yoki hayvonning rivojlanish jarayonini, har xil organizmlarning tabiiy sharoitlarda birgalikda yashashlarini, atmosfera jarayonlarini, kartografik va topografik ishlarni ko'rsatib bo'lmaydi. SHuning uchun ham geografiya o'qitish metodikasida darslarni to'ldiruvchi maxsus shakllar qo'llaniladi. Ekskursiyalarda o'quvchilar tabiatdagi tabiiy jarayonlarni, qishloq xo'jaligida, sanoat korxonalarida, muzeylarda o'simlik va hayvonlar bilan tanishtiriladi. Ekskursiyalar avval qaror topgan tushunchalarni mustahkamlaydi, aniqlaydi, chuqurlashtiradi va umumlashtiradi.

Ekskursiyalar darslar bilan chambarchas bog'lanadi: ekskursiyada ko'rilgan obektlar kurs davomida ko'p marta yodga olinadi, to'plangan narsalar esa namoyish qilinadi. Yakunlovchi ekskursiyalarda o'quvchilar avval olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydilar, topshiriqlar bo'yicha mustaqil kuzatishlar o'tkazadilar va material yig'adilar.

Darslarning uy vazifalari bilan, xususan, eksperimental xarakterdagi topshiriqlar bilan bog'liqligi aniq va ravshandir. o'quvchilar uyda uncha murakkab bo'lmagan tajribalarni amalga oshiradilar, kuzatishlar o'tkazadilar. (Masalan, uyda daftarlariga sinfda ajratilgan gul qismlarini yoki hasharot bo'laklarini yelimlaydilar, jadval to'ldiradilar, rasmini chizadilar). Bu o'qitishning eng yuqori ko'rgazmalilikka va o'quvchilarning ijodiy mustaqilligiga asoslangan maxsus shaklidir.

Dasturning deyarli har bir mavzusi bo'yicha ekskursiyalar mo'ljallangan. Vatanimizning tabiiy sharoiti ular sonini ancha ko'paytirishga imkon beradi.

Ekskursiya o'quv-tarbiya ishlarining juda murakkab va qiyin shakli hamda bilimlarni bayon qilishning xilma-xil metodlarini nazarda tutuvchi eng samarali o'qitish shakllaridan biridir. Ekskursiyaning kalendar ish rejasi o'quv yilining boshida bir yil uchun choraklar bo'yicha mahalliy sharoit hisobga olingan holda tuziladi. Har bir ekskursiya puxta tayyorgarlikni talab qiladi va odatda quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- Ekskursiyalarning kalendar rejasini tuzish;
- aniq o'quv-tarbiya vazifalarini belgilash;
- obekt tanlash va u bilan taxminiy tanishish;
- kengaytirilgan ish rejasini tuzish;
- ekskursovodni yoki korxonada xodimlarini o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishga tayyorlash, ularni ekskursiyaning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;
- o'quvchilarni oldindan tayyorlash (Ekskursiyaning umumiy vazifalarini qo'yish, topshiriq va vazifalarni taqsimlash, ekskursiyadagi xulq-atvor qoidalari bilan tanishtirish, anjom-aslaha va jihozlarni tayyorlash);
- kuzatish imkoniyatlarini hisobga olib, eng maqsadga muvofiq yo'nalish tanlash;
- Ekskursiya o'tkazish uchun yordamchilarni tayyorlash.

**Ekskursiya vaqtida o'tkaziladigan va bajariladigan ishlar** quyidagilardan iborat: 1) ekskursiya vaqtida o'quvchilar ekskursiya joyigacha yo'l-yo'lakay kuzatishlar o'tkazib boradilar; 2) ekskursiya davomida o'qituvchi tushuntirib boradi; 3) ekskursiya joyida o'quvchilar odamlar va mashinalar harakatini yoki tabiat obektlari va hodisalarini kuzatadilar; 4) ishchilar va muhan-dislar bilan suhbatlashadilar; 5) tabiiy material yig'adilar va oldindan tayyorlab qo'yilgan jild, quticha, bonkalarga soladilar; 6) o'lchov ishlarini (daryoda, tuproq

kesmalarida, tepalikda) olib boradilar; 7) kompas bo'yicha yo'nalishlarni aniqlaydilar; 8) rasm chizadilar, xulosalar chiqaradilar, xulosalarni umumlashtiradilar; 9) kuzatayotgan obektda baholi qudrat ijtimoiy foydali mehnat qiladilar.

**Ekskursiya vaqtida to'plangan material** darsda, uyda yoki darsdan tashqari vaqtda maktabda ishlanadi (tartibga keltiriladi). Ulardan gerbariy va kolleksiyalar tayyorlanadi, ular tarqatma material bo'lib xizmat qiladi yoki ulardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalaniladi. SHu maqsadda, shuningdek, rasmlar, albomlardan ham foydalaniladi.

Ekskursiyada to'plangan materiallardan faqat geografiya darslaridagina emas, maktab o'rta ta'limining matematika, o'zbek tili va adabiyoti, mehnat va rasm darslarida ham foydalanish mumkin. CHunonchi, 5- sinfda "mehnat" darslarida o'qitilayotgan davrda o'quvchilar bilan "Kuz" mavzusi bo'yicha ikkita ekskursiya o'tkaziladi, ekskursiyalar vaqtida o'quvchilar xiyobonda erta va kech kuz davrida o'simliklar hayotidagi o'zgarishlar bilan tanishadilar. Bolalar qushlarning uchib ketishini kuzatadilar, mehnat darslari uchun tabiiy material yig'adilar.

Qish va bahorda o'quvchilarning o'simliklar hayotidagi yil fasllariga qarab farqlarni ko'rishlari uchun kelgusi ekskursiyalar o'sha obektlarda o'tkaziladi. 5- sinf geografiya darslarida tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar mavzusi bilan bog'lq holda ekskursiyalar o'tkaziladi, ularda o'qituvchi bolalar bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, tabiat haqida aniq tushunchalarni shakllantiradi.

6-sinfda bolalar ekskursiyalarda geografik qobiq qonuniyatlari bilan tanishadilar va ularni yil davomida kuzatib boradilar. 7- sinfda O'zbekiston tabiiy geografiyasi darslarida O'zbekistonning tabiiy sharoiti va foydali qazilmalarini, 8- sinfda, O'zbekiston aholisi etnik xususiyatlari, fermer ho'jaliklari bilan va sanoat korxonalri faoliyati bilan tanishtirishi kerak.

Ekskursiya o'quvchilarni tabiat hodisalarining yoki tabiat va mehnat aloqalarini aks ettiravchi faktlar bilan tanishtirish uchun zarur bo'lgan noyob bilim manbaidir. Misol sifatida eng ko'p tarqalgan suv o'simliklari va hayvonlar bilan tanishish maqsadida suv havzasiga o'tkaziladigan ekskursiya rejasini keltiramiz. (6-sinf):

- 1) ilgari tabiatga (boshlang'ich sinfda) o'tkazilgan ekskursiya mazmuni bo'yicha suhbat;
- 2) yangi mavzu bo'yicha (suv havzasining mavjudotlari haqida) kirish suhbat;
- 3) suv manbaalari haqida umumiy tushunchalar berish;
- 4) hayvonlarni kuzatish va o'simliklarni kuzatish;
- 5) yaqinda joylashgan suv havzasidagi o'simlik va hayvonlarning tashqi tuzilishini qarab chiqish;
- 6) ekskursiya materialini yig'ish;
- 7) umumlashtiruvchi suhbat;
- 8) uyga vazifa berish (jadval).

Ekskursiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi, bunda og'zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish), ko'rgazmali (suhbat jarayonida kuzatish) va amaliy (o'quvchilarning amaliy ishlariga rahbarlik qilish) metodlardan foydalanadi.

Ekskursiya jarayonida o'quvchilar faqat kuzatibgina qolmasdan, balki o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida yangi ma'lumotlar olishlari va ulardan amalda foydalana bilishlari kerak. Olgan bilimlarning natijalarini o'quvchilar so'zlab bera olishlari lozim.

O'qitishning xilma-xil metodlari va uslublaridan foydalanish jihatidan darslarga o'xshash bo'lgan ekskursiya ayni vaqtda o'ziga xos belgilarga ham egadir. U maktabdan tashqarida o'tkaziladi va ko'proq vaqt talab qiladi, vaqt faqat bilish faoliyatigagina emas, balki o'rganish obekti tomon va orqaga qarab harakatlanishga ham sarflanadi.

Ekskursiya vaqtida bilimni faqat o'qituvchigina emas, balki boshqa shaxslar ham bayon qiladilar. Uning farq qiladigan muhim belgisi - atrof borliqning obekt va hodisalari bilan tanishtirishdir. Sinfda esa tabiiy obektlar ko'pincha ko'rgazmalilikning u yoki bu vositalari bilan almashtiriladi. SHuning uchun ham ekskursiyada darsdagiga qaraganda o'rganiladigan obekt va hodisalarning aniq bog'lanishlari osonroq belgilanadi.

## 2.2. O'quvchilar ongiga "ekskursiya darslari" ma'lumotlarini singdirish jarayonida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati

"Geografiya" fani yosh avlodni tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi: unga nisbatan muhabbatni tarbiyalaydi, tabiat chiroyini idrok etish uni qo'riqlash, asrash, ing'omlaridan oqilona foydalanish, ana shu boyliklarni o'z qo'llari bilan yaratish va ko'paytirishga chorlaydi.

Bolalarning atrofimizdagi olamni muntazam o'rganib borishlariga asoslanib, o'quvchilarda tabiat to'g'risida, o'z joyi va barcha mamlakatlarning tabiiy boyliklari to'g'risida bir butun tasavvurni shakllantirish kerak. O'quvchilar Vatanimizning tabiiy boyliklaridan odamlar o'zlarining mehnat faoliyatlarida qanday foydalanayotganliklari bilan tanishishlari lozim. Bunda o'quvchilarga odamlar mehnati tabiat atrof bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatish g'oyat muhimdir.

SHu talablarga ko'ra o'quvchilarga:

- o'zaro bog'liqligi ochib berilgan jonli va jonsiz tabiat to'g'risida aniq bilimlar berish;
- ekologik muammolarning vujudga kelishi to'g'risida ma'lumotlar berish;
- ularni tabiatda kuzatishlar o'tkazish uquvi va ko'nikmalari bilan qurollantirish;
- tabiatdan oqilona foydalanish va uning boyliklarini ko'paytirishga qaratilgan insonning mehnat faoliyati bilan tanishtirish;
- jonajon tabiatga muhabbat, uni muhofaza qilishga intilishni tarbiyalash kerak.

Umumta'lim va hunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlariga muvofiq geografiya dasturiga kiritilgan o'zgarishlar, ko'rsatilgan vazifalar, geografiya kursida o'quvchilarning ekologiya, ho'jalik korxonalarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati, mehnat va gigiena tarbiyasiga e'tiborni yanada kuchaytirishni, "har bir o'quvchining gigiena va meditsina sohalarida minimum bilimni egallash, yoshligidan o'z organizmini bilishi, uni tartibli saqlay olishi" uchun sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi.

Og'zaki, ko'rgazmali, amaliy va boshqa metodlardan foydalaniladi. Bolalarning ijodiy faolligi, individual qobiliyatlarini ochishga qaratilgan metodlar tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Geografiya bo'yicha mashg'ulotlarni sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar: ochiq havodagi o'yinlar, o'lkashunoslik ekskursiyalari, sanoat korxonariga yurishlar bilan chambarchas bog'lamoq zarur.

Bularning hammasi o'qituvchiga geografiya bo'yicha o'quvchilar bilan shug'ullana borib, ularni faqat yaxshi bilim olishgagina emas, balki ular shaxsini shakllanishiga ta'sir ko'rsatishga ham imkon beradi.

Geografiya darslari mehnat tarbiyasi maktabi hamdir. Aniq misollarda o'quvchilarni odam mehnati - uning jismoniy va ma'naviy sihatligining manbai ekanligiga ishontirib, o'qituvchi mehnatga muhabbatni, astoyidil mehnat qilish istagini, mehnat ahliga hurmatni tarbiyalaydi. Bu 5-sinfda "Maktab xodimlari mehnatiga hurmat", "Maktab oldi maydonidagi ishlarga qatnashish", "Ishlab chiqarishda band odamlarning kasblari"; 6-sinfda "Kun tartibidagi mehnatning turlari", "Xona o'simliklarini parvarish qilish", "qurilish,sanoat korxonalarida ishlovchi odamlarning kasblari", "Mavsumlar bo'yicha maktaboldi maydonidagi ishlar"; 7-sinfda "Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha odamlar mehnati", "Mehnat va dam olish rejimi (tartibi)", "Dalada, bog'da, polizda odamlar mehnati", "Maktaboldi maydonida odamlar mehnati", "Foydali qazilmalarni olish"; 6- sinfda "CHo'llarda, dashtlarda, o'rmonda, tog'larda, tundrada odamlar mehnati", "Er osti boyliklari, suv, havo, o'simliklar, hayvonlar muhofazasi bo'yicha odamlar mehnati" mavzularidir. Mehnat mavzusi o'quvchilarning kompleks tarbiyasida katta o'rin egallaydi.

**Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.** Geografiya darslaridagi ta'lim va tarbiya jarayonida asosiy eg'tibor o'quvchilar tomonidan dasturlarda mo'ljallangan bilim, o'quv va

ko'nikmalarni egallab olishgagina emas, balki ularda idrok qilish qobiliyati, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga ham qaratilmog'i lozim. O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bo'yicha ish dasturida belgilangan doirada, dastur materialida, maktabning barcha ta'lim-tarbiya ishlari bilan bog'liq holda olib borilishi kerak.

O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga rahbarlik qilish ularni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirishga va shu kabi operatsiyalarni uquv bilan bajarishga o'rgatish, shuningdek, ularga oddiy tushunchalarni o'zlashtirish, o'z mulohazalarini bayon qilish va xulosalar chiqarishlariga yordam berish demakdir. SHunga intilish kerakki, ularning nutqi aniq, izchil va isbotli bo'lsin, geografiya atamalaridan foydalanishga asoslansin. O'qitish jarayoni, agar u to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, shu paytning o'zida o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilmog'i zarur.

Mantiqiy uslublar (taqqoslash, tahlil qilish va sintezlash, mavhumlashtirish, konkretlashtirish, umumlashtirish)dan geografiyani o'qitishda foydalanish, tushunchalar, mulohazalar, muhokamalar ustida ishlash - bularning hammasi pedagogik jarayonni boyitadi, uni yana ham mazmunliroq qiladi, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini kuchaytiradi.

Geografiya darslari o'quvchilarning aqliy jihatdan rivojlanishi uchun, jumladan, tafakkurning rivojlanishi uchun boy material beradi. Til va tafakkur ajralmasdir, tilsiz inson tafakkurining, tafakkursiz tilning bo'lishi mumkin emas. O'quvchilar tabiat jismlarining nomlarini atab, ular to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini izhor qilib, shu narsalarni idrok qiladilar va ularga o'z munosabatlarini ko'rsatadilar. O'quvchilarning nutqi ustida ish olib borish bilan bir vaqtda o'qituvchi ularning tafakkuri ustida ham ish olib boradi, o'quvchilar fikrining aniqligi, tushunariligi, izchilligi va asoslanganligini tarbiyalaydi.

**O'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil qilish.** Fikrlash faoliyati odamda tabiat bilan kurashda duch kelgan qiyinchiliklarni yengish usuli sifatida evolutsiya jarayonida vujudga kelgan. Darhaqiqat, har birimiz doimo u yoki bu darajada qiyin holatga tushib turamiz, bunda odatdagi faoliyat usulimiz muvaffaqiyatni tag'minlamasligi mumkin. Amaliy yoki nazariy maqsadlarga erishish uchun yangi yechim axtarishga majbur qiladigan shunday holatlar *muammoli vaziyat* deb ataladi.

Muammoli vaziyat o'quvchilar tomonidan muayyan savolga javob berishni talab qiluvchi vazifa sifatida qabul qilinadi va anglab olinadi. Tafakkur uchun masalani anglab olish - bu go'yo faol fikrlash faoliyatining boshlanishiga signaldir. O'quvchida savolning tug'ilgani, uning tafakkur yuritayotganidir.

Masalani anglab olish vazifani hal qilishning birinchi bosqichidir. To'g'ri qo'yilgan masala - javobning yarmi, deb bekorga aytishmagan. Masalan, ushbu savol: Nima uchun tundrada katta daraxtlar o'smaydi? Bu savol to'g'ri va aniqdir.

Ikkinchi bosqichda masala shartini, uni yechish uchun nima mag'lumligini aniqlash boradi. Ijodiy fikrlashni ichki qonuniyatlarini o'rganish uchun o'quvchilarga masala taklif qilish, ularni muammoli vaziyatga kiritish lozim. Muammoli vaziyatga bir nechta misollar keltiramiz.

Geografiya o'zining mazmuni va metodlari bilan o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega.

Tabiat - dunyo fani va shuning uchun ham geografiya darslari o'quv materiali mazmunini yetkazishning yangi metodikasini talab qiladi, uning asosiy maqsadi bilimlar yig'indisini faqat esda qoldirish bo'lib qolmasdan, balki ularni ishonchga aylantirish hamdir. Ishonch insonlarga, atrof olamga bo'lgan munosabatda, odatlarda, ish yuritishda, xulq-atvorda namoyon bo'lishi kerak.

Bunda geografiyaning turmush bilan aloqasi birinchi o'ringa chiqariladi. O'quvchilarni xalq xo'jaligi rejalari aks ettirilgan davlat qarorlari bilan tushunarli tarzda tanishtirib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu vazifalarni osonlashtirish uchun ko'rgazmali materiallar, diafilmlar, markaziy va mahalliy davriy matbuot materiallari, kino va telefilmlarni (ularni o'qituvchi bilan birga ko'rganlaridan keyin) muhokama qilish, mehnat faxriylari, mashhur paxtakorlar,

chorvadorlar, ishlab chiqarish ilg'orlari haqida hikoya qiluvchi kitoblar, o'quvchilar bilan birga rasmiylashtirilgan illustratsiya va statistik mag'lumotlar, turli sohalarda (respublika, viloyat, tuman va shahar bo'yicha) erishilgan yutuqlar to'g'risidagi *stendlardan* keng ko'lamda foydalanish lozim.

Geografiya vositasida amalga oshiriladigan kompleks tarbiya faqat darslardagina emas, balki o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatlarida (ekskursiya, sinfdan tashqari mashg'ulot, maktaboldi maydonidagi ishlar va boshqalarda) ham muntazamlilik hamda rejalilikni talab qiladi.

**Vatanparvarlik va baynalmilalchilikni tarbiyalash.** Jamiyatimizda vatanparvarlik tarbiyasini baynalmilalchilik tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buning uchun tabiat muhofazasi yetarli material beradi. SHunga ko'ra vatanparvarlik tarbiyasini atrof tabiatni o'rganishdan boshlash kerak. Bolalikdan yurakka singib ketgan jonajon o'lka tabiati ayni paytda "Vatan" atalmish keng tushunchaning tarkibiy elementi hamdir. O'lkashunoslik ishlari, maktab maydonchasidagi mehnat, ekskursiyalarda jonajon o'lkani o'rganish o'quvchilar xotirasida chuqur iz qoldiradi, o'z o'lkasiga muhabbatni mustahkamlaydi, uning boyliklarini qo'riqlash, ulardan oqilona foydalanish zarurligi to'g'risidagi tushunchani shakllantiradi. o'lka tabiati, uning boyliklari, xo'jalik xususiyatlari bilan tanishtirish o'quvchilarning sinfda olgan bilimlarini xalqimizning turmushi va mehnat faoliyati bilan bog'lashga yordam beradi. Masalan, foydali qazilmalarni muhofaza qilish va mamlakatimiz tabiatining xilma-xilligi mavzulari. (5 - 6- sinf "Geografiya" darsliklari).

**Tabiatga muhabbat va uni asrash hamda muhofaza qilishga intilishni tarbiyalash.** Tabiatga muhabbat ulkan va murakkab hissiyotdir. U bolaning ruhiy va aqliy dunyosini o'z ichiga olib murakkab psixik kompleksni hosil qiladi. Bu hissiyotni tarbiyalashni bola esini taniy boshlaganidan boshlash kerak, chunki unda jonajon tabiatga muhabbat bilan birga jonajon o'lkaga ko'ngil qo'yish o'sib boradi. Bolalikda tug'ilgan bu hissiyot maktab yillarida shakllanib, boyiydi, bunga mag'lum darajada geografiya yordam beradi, albatta, u tabiat go'zalligini qabul qilishgagina emas, balki uni muhofaza qilishga, shuningdek, ko'paytirishga ham o'rgatadi.

Atrof-muhitga ongli munosabatni tarbiyalash uchun birinchi sinfdan boshlaboq atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotlarda (tabiiy xarakterdagi maqola o'qilgandan keyin) bolalar oldiga amaliy vazifalar qo'yish zarur.

Ikkinchi sinfda shu predmet bo'yicha bilimlar doirasi kengaytirilayotganda nazariy bilimlar, amaliy mashg'ulotlar (qishlovchi qushlarga yordam, yashil ko'chatlarni himoya qilish, erta gullovchi o'simliklarni qo'riqlash) bilan bog'lanadi.

**O'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash.** Maktab o'quvchilariga O'zbekistondagi ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari to'g'risida tasavvur berishi, jamiyat hayotida ro'y berayotgan jarayonlarning mohiyatini tushunib olishlariga yordam beruvchi bilim asoslarini shakllantirishi, kasbga yo'naltirishi, kelgusi amaliy faoliyatga tayyorlashda zarur bo'ladigan, amaliy o'quv hamda ko'nikmalarni singdirishi kerak. Geografiya darslarida, shuningdek, tirik tabiat burchagi, maktaboldi maydoni va boshqalarda amaliy ishlar bajarish vaqtida kichik yoshdagi maktab o'quvchilari oddiy mehnat asboblarni ishlata olish, kuzatish va tajribalar o'tkazish bo'yicha amaliy o'quv hamda ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilar maktaboldi maydonchasida qishloq xo'jaligi ishlarini bajarib, dala va fermalarda kattalarga yordam berib, ta'lim-tarbiya maqsadida unumli mehnatga baholi qudrat kirishadilar. Ularda asta-sekin olingan bilimlarni amalda qo'llash, tabiat hodisalarini tushunish, qishloq xo'jaligida har xil amaliy ishlarni bajarish uquvlari rivojlanadi. "YasM nazoratchilar" qishloq xo'jaligi zararkunandalarining paydo bo'lishini kuzatish bo'yicha amaliy faoliyat yuritib, olgan bilimlarini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilarni tabiatga yanada yaqinlashtirib, unga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalaydi.

Amaliy faoliyat o'quvchilarda mehnatga muhabbatni, ongli intizomni, maqsadga erishishda astoydillikni, jamoada ishlash uquvi va boshqa foydali sifatlarni tarbiyalaydi. SHunday qilib, umumiy ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarining geografiya darslarida ham o'quvchilarga har tomonlama tarbiya berish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bunday

tarbiyadan maqsad yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni, estetik didni shakllantirish, ularni vatanparvarlik va baynal-milalchilik rahida taibiyalash, tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga, mehnatga o'rgatishdan iborat

### **2.3. Maktab geografiya ta'limini rivojlantirish masalalari**

Mamlakatimizning buguni va kelajagi ilm-fan, ta'lim-tarbiya taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni amalga oshirish 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va davlatimizning bir qator me'yoriy xujjatlarida asoslanib berilgan. O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishi ma'naviy jihatdan yetuk, texnikaviy bilimlar va murakkab, texnologiyalarni egallagan, irodasi baquvvat, imoni butun, zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar xal etadi. Islohotlar tufayli ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, tarbiya masalasiga kompleks yondashish, kasb tanlash va shaxsni kelajak faoliyati, mehnatga tayyorlash, umuman olganda erkin fikrlovchi inson-fuqaroni kamol toptirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunday muhim vazifalarni bajarish geografiya ta'limiga, xususan geograf mutaxassislarning ilmiy-nazariy saviyasi, pedagogik mahorati, ularning ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishlariga ham bog'liq. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini bilish orqali o'qituvchi pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish mahoratiga ega bo'ladi, ularda pedagogik faoliyatni ijodiy va uslubiy tomondan to'g'ri bajarish malakalari shakllanadi, mustaqil ishlash, bilim olish, ixtisoslik darajasini oshirib borish imkoniyati yuzaga keladi. SHuningdek, dars jarayonida pedagogik texnologiyaning zamonaviy usullaridan foydalanish qobiliyati ortib boradi.

Ta'lim – tarbiya olib boruvchi geograf mutaxassislar kompyuterni, informatika va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini bilishlari, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy o'yinlar, o'quv-tadqiqotchilik va referat topshiriqlarini bajartirish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. SHuningdek, pedagog-geograflar psixolog-pedagogik fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalar mazmunidan xabardor bo'lishlari, mavzular mazmunini yorituvchi ko'rsatmali vositalar, tarqatma materiallar, EHM, texnika vositalaridan samarali foydalanishni bilishlari lozim. SHu kabi, talabalarning mustaqil ishlash, fikrlash qobiliyatlari ham asosan, dars jarayonida ko'rsatmali vositalardan foydalanilganda, tajriba va amaliy mashqlar bajartirilganda savol-javob usullari qo'llanilganda, loyihalash usullarini amalga oshirganda takomillashadi. Talabaning bilish qobiliyati, malaka va ko'nikma hosil qilish dars jarayonlarining shakllari, ularga ajratilgan vaqt va usullarga bog'liq. (Masalan ijobiy dars, teatrlashtirilgan dars, ijtimoiy tendentsiyalarga hamoxang noananaviy darslar va b).

Geografiya ta'limida olib boriladigan dars jarayonlarida turli xildagi pedagogik texnologiya uslublaridan foydalanish hozirgi kun talabidir. Biroq, u texnologiyalarni qaysi mavzularni o'tishda, shuningdek, 2 soatli dars mashg'ulotida foydalaniladigan usul va uslublarga qancha vaqt ajratilishi muhimdir. Ta'limda turli uslublar qo'llaniladi. Quyida biz ba'zi-bir texnologik uslublarga to'xtalib o'tamiz. Jumladan:

"Pinbord" uslubi (ingliz pino – mustahkamlash, bord – doska) orqali dars mashg'ulotida munozara yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan bog'lab olib boriladi. Ushbu uslub natijasida talabalarning fikrlash qobiliyati, munozara yuritish muloqat qilish madaniyati takomillashadi, fikrlarni tizimli ifodalash, unga mantiqiy yondashishi shu bilan birga yozma bayon etish malakasi rivojlanadi.

"Bumerang" uslubida dars jarayonini olib bo'rganda ikki soatli dars jarayonida o'quv materialini chuqur va yaxlit o'rganiladi, ijodiy tushunib yechish, mavzuni erkin iroda etish qobiliyati rivojlanadi. Ushbu uslubda yozma va og'zaki ish shakllaridan foydalaniladi, bir mashg'ulot davomida har bir talaba turli topshiriqlarni bajarish, o'z navbatida ham talaba, ham o'qituvchi rolini bajarishi mumkin bo'ladi. "Bumerang" texnologiyasi talabalarni tanqidiy fikrlashga, mantiqiy shakllantirishga, xotirani yaxshilashga, g'oyalarni, fikrlashni dalil-isbotlarni yozma yoki og'zaki bayon qilish ko'nikmalariga ijobiy yo'naltiradi. SHuning bilan birga ushbu

uslub shaxsni jamoa bilan ishlash mahoratini kuchaytirish, muomalalik, xushfe'llik, ko'nikuvchanlik, o'zgaralar fikriga xurmat, faollik, ijodiy ishlarga to'g'ri yondashishga, o'z faoliyatini samarali bo'lishga qiziqishga, o'zini-o'zi baholash mahoratiga o'rgatadi.

Geografiyadan olib boriladigan dars jarayonida "Skarabey" interfaol texnologiyasidan foydalanish natijasida talabalar fikr-mulohazalarni izchil bog'laydilar, ularda mantiqning kuchayishi va xotirasining rivojlanishi vujudga keladi, o'z fikrlarini ochiq va erkin ifodalash imkoniga ega bo'ladilar. Talabalarda mavzu mazmuni haqida aniq tushuncha va tasavvur hosil bo'ladi, turli g'oya va ular orasidagi bog'liqliklarni to'g'ri tavsif qilish malakasi takomillashadi. "Skarabey" interfaol va universal texnologiya bo'lib, undan o'quv materiallarning turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi. (Dars mashg'uloti boshlanishida, mavzuni o'rganish jarayonida, olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash bosqichida). Ushbu uslubda ko'proq talabalarning oldin olgan bilimlaridan, tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Uslub orqali talabalarda faollik o'rtadi, mavzuni o'zlashtirishga ijodiy yondashiladi, o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholash imkoniyati yuzaga keladi.

Geografiyadan murakkab va muammoli mavzularni o'tish jarayonida "Beep" uslubidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu texnologiyadan foydalanilganda mavzularning qismlari bo'yicha axborot beriladi va shu bilan birga, ularning har biri alohida muhokama qilinadi. Jumladan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari aniqlanadi. Bu texnologiya texnikaviy, taxliliy, aniq mantiqiy fikrlashni ijobiy rivojlantirishga, egallagan bilimlarini yozma va og'zaki shaklda qisqa bayon etishga, o'z fikr-mulohazasini isbotlashga imkoniyat yaratadi. Ushbu uslub orqali har bir talaba, kichik talabalar guruhi va umumiy guruh talabalar mavzu mazmunini muhokama qilishda faol ishtirok etadilar. "Beep" texnologiyasi ham har bir mavzuni o'rganishning turli bosqichlaridan qo'llaniladi.

Geografiyadan olib boriladigan dars jarayonlarida yuqorida keltirib o'tilgan zamonaviy uslublar va boshqa zamonaviy uslub, texnologiyalarni qo'llash o'qituvchining bilish qobiliyati, ish tajribasiga, malaka hamda ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, ulardan foydalanish talabalarni mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlash imkoniyatlarini shakllantiradi va takomillashtiradi. Bu borada mutaxassislar ko'proq izlanishlari, ta'lim muassasalari esa o'quv uslubiy va moddiy-texnika bazasi bilan yuqori salohiyatda ta'minlangan bo'lishi lozim. SHundagina, ta'limning o'qitish jarayoni orqali Vatanimiz oldidagi burchi, ma'suliyatini chuqur idrok etuvchi, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish mumkin.

Maktab-inson kelajagiga poydevori bo'ladigan, jamiyatni rivojlantirishga qodir ilm-ma'rifatli kishini voyaga yetkazadigan ta'lim-tarbiya maskanidir. SHunga ko'ra, ta'lim va tarbiyaning yangi sistemasida mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, erkin shaxsni kamol toptirish muhim masala bo'lib bormoqda. Prezidentimiz Islom Karimov buyuk bobokalonimiz Amir Temur davlatining asosi bo'lgan "kuch adolatdadir" nomli shio'rini, bugungi kunning talabi va mazmunidan kelib chiqib, "kuch bilim va tafakkurda" deb ta'kidlashi bejiz emas. Bugungi kunda ta'lim-tarbiyaning roli juda muhimligi barchamizga ma'lum. Insonda adolat, tafakkur hamda bilimlar ta'lim-tarbiya orqaligina yuzaga keladi. Kelajagi buyuk, rivojlangan demokratik davlat qurishda ta'lim-tarbiya poydevori vazifasini o'taydi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ilm-fan, ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berildi. Istiqolol yillarida qabul qilingan "Ta'lim tog'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning davlat umummilliy dasturi" kabi farmonlar hayotga bosqichma-bosqich tadbiiq etib kelinmoqda. Bugungi kunga kelib yuqoridagi islohatlar natijasida ta'lim-tarbiya tizimida tub o'zgarish yuz berdi, muvoffaqiyatlarga erishildi. Dunyoning ko'pchilik davlatlari bizning erishgan yutuqlarimizni tan olmoqdalar, e'tirof etishmoqda.

Dunyoqarashi keng, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda geografik bilimlarning ahamiyati yuqori. CHunki dunyoqarashning keng bolishi uchun dunyo haqida, ya'ni materiklar va okeanlar (ularning paydo bolishi ham), dunyodagi davlatlar va ularning xo'jaligi, xalqlar hamda ularning milliy, diniy, irqiy, jinsiy, yosh tarkiblari, urf-odatlar, kasb-kori hamda tabiat bilan jamiyatning o'zaro va bir-birlari bilan aloqalari, insonlarning

tabiatga ta'siri va tabiatning insonlarga munosabati va shu kabilar insonning dunyoqarashini belgilab berdi. Bularning inson tafakkurida shakllanishi unda dunyoqarashning keng bolishi uchun katta turtki bo'lib xizmat qiladi. SHaxs va jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modeli "Barqaror rivojlanish" kontseptsiyasida ham geografiya fanining ahamiyati juda tez ortmoqda. Kontseptsiya BMTning "Barqaror rivojlanish" rukni ostida Butunjahon Sammitida ishlab chiqilgan. Unda "Tabiat bu- ajdodlardan qolgan me'ros emas, balki avlodlardan qarzga olingan boylikdir" degan xitoblar yangramoqda. Axir "aqlning xukmronligi ta'minlangan (noosfera) bugungi kunda tabiatga befarq munosabatda bolish aybdorlikdir".

Geografiya jamiyat uchun aksariyat eng ahamiyatli, aktual, ommabop, qiziqarli ma'lumotlarni, bilimlarni taqdim etuvchi zamonaviy fandır. U tabiat va jamiyat munosabatlarini tog'ri, oqilona yuritish masalalarini tadqiq etuvchi fanga aylanib bormoqda. XXI-asrda geografik bilimlarsiz tabiatdan, uning boyliklaridan, betakror manzaralaridan oqilona foydalanib bo'lmaydi. Insoniyatning tabiatni kor-korona o'zgartirishida, "ochkozlarcha" xatolar zaminida aksariyat geografik qonun-qonuniyatlardan bexabarlik yoki unga amal qilmaslik yotadi. Vaholanki, tabiatni muhofaza qilish ishida geografik bilimlar jamiyatning eng ishonchli, samarali bilimlar manbai bo'lib bormoqda. O'quvchilarga bilimlar berishning muhim vositalaridan biri darslikdir. Nobel mukofoti nishondori, akademik S.P. Kapitsa ta'kidlaganidek, "darslik-bu millatning iftixoridir". Darhaqiqat, millionlab yoshlarning bilimi, e'tiqodlari, millatning ozligini anglashi ko'p jihatdan maktabga, xususan darsliklarga bog'liqdir. Har qanday o'quv fanining dasturi yoki darsligi uchun ilmiy tadqiqotga asoslangan kontseptsiyasi bolmog'i lozim. Chunki, darslik, korgazmali qo'llanmalar hamda o'quv jihozlarini ma'lum kontseptsiyaga rioya qilmay oz xolicha yarataverish ta'lim jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Darslik- bu o'quv-uslubiy majmuani yagona kontseptsiyaga birlashtiruvchi "fokus" o'rnini tutadi. Zero, darslik qanday kontseptsiyaga asoslangan bo'lsa, o'quv-uslubiy majmua ham shunday kontseptsiyaga asoslanishi shart. Hozirgi vaqtda tabiiy fanlarning tez rivojlanishi geografiyani ham chetlab otmayapdi. Hozirgi geografiya yangi o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Undagi yangi fan yo'nalishlari paydo bo'lib, tabiat va jamiyatning turli jabhalari bevosita va bilvosita tadqiq etilmoqda. Geografiya barcha asosiy fanlar singari tabiat va jamiyat munosabatlarini belgilovchi asosiy fanlardan biriga aylandi.

Fan va texnika yuksalgan sari fundamental tabiiy fanlar tobora texnika va texnologiya sohasidagi fanlarni ham qamrab olib, fizikaviy kimyo, kimyoviy fizika, geofizika, geokimyo singari onlab kompleks fanlar vujudga kelmoqda. Bunday kompleks fanlar zaminida kompleks bilim va malaka talab qiluvchi yangi-yangi kasb-korliklar paydo bolmoqda. SHularni nazarda tutib "O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktabi kontseptsiyasi"da turli turkumdagi fanlardan omuxta (integrativ) o'quv fani yaratish g'oyasi ilgari surilgan. Bu g'oya ham maktab geografiyasiga bevosita aloqadordir. Xullas, bir tomondan iqtisodiy, iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar, ikkinchi tomondan geografiya ilmi va ta'limi uslubiyotidagi o'zgarishlar bois maktab geografiyasining ilmiy-uslubiy qayta qurish kontseptsiyasi ishlanmasi shu kunning dolzarb muammosiga aylandi. Maktab geografiyasining mazmunini belgilash va shu asosda o'quv rejasi va dasturlarini ishlab chiqish uchun o'quv fanining o'rta umumta'limdagi o'rni, maqsadi va vazifalarini eng muhim jihatlarni belgilab olmoq zarur. Mazkur kontseptsiya asosida tuzilgan o'quv dasturlarida geografiya ta'limining maqsad va vazifalari mukammal ifodalanishiga katta e'tibor qaratmoq lozim.

Geografiyani ayrimlar tushunmasligidan hali ham yer yuzasidagi davlatlar, shaharlar, ko'l, daryolar va tog'lar qaerdaligini o'rgatuvchi fan deb qarashadi. Hozirgi geografiya o'zining evolyutsion taraqqiyotida bir necha bosqichlarni bosib otdi. U qadimiy tasvirlovchi funktsiyani bajaruvchi fandan tubdan farqlanadi. Endi u turli tabiiy ijtimoiy va siyosiy ma'lumotlar, qonuniyatlar, voqea va xodisalar, jarayonlar, munosabatlar, aloqalarni o'rganish asosida tabiat va jamiyatni muammoli masalalarini xal qiluvchi, ilmiy xulosalar chiqaruvchi, umumlashmalarni aniqlovchi, amaliy tavsiyalar beruvchi, ilmiy gepotezalar bera oluvchi fundamental fan darajasiga ko'tarilgan. SHuningdek, tabiiy, xo'jalik va aholining hududiy komplekslarini, aniqrog'i geokomplekslarni kompleks tadqiq etuvchi fan hamdir.

Keyingi vaqtlarda yuzaga kelgan sanoatning jadal osishi, qishloq xo'jaligini kengaytish, tabiiy resurslarning tugab borishi, geourbanistik va geodemografik, geokologik va geosiyosiy kabi muhim vaziyatlarning shakllanishuvini xalq etmasdan turib, insoniyat kelajagini tasavvur qilish qiyin. Bu kabi hodisa va jarayonlarni oldin olishni biz pedagoglar maktab partasida otirgan o'quvchilardan, boqcha yoshidagi bolalardan, oiladan boshlamog'imiz lozim. Ma'lumki, ta'lim-tarbiyada faqat maktabninggina emas, balki oila va ishlab chiqarishning roli ham kattadir. Zero, tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi. Yuqoridagi aytib o'tilgan muammo va yechimlarni ijobiy hal etishda maktab, oila va ishlab chiqarish hamkorligi katta ahamiyatga egadir.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, biz quyidagi tadbirlarni ayni paytda amalga oshirishni zarur deb hisoblaymiz.

1. Respublika umumiy o'rta ta'lim maktablarida, o'rta maxsus ta'lim maktablarida geografiya fanining mazmuni, sifati va ajratilgan dars soatlarini qayta ko'rib chiqish zarur. Geografiya o'qitish sa'viyasini takomillashtirish, uni zamon talablariga moslashtirish lozim. Geografiya asoslarini o'rganishda 5-sinfda atigi 34 soat ajratilgan. (Rossiyada 102 soat, Qozog'istonda 68 soat).

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar hamda oliy o'quv yurtlari uchun yarataytgan darslik, o'quv qo'llanmalarini tubdan isloh qilish, ya'ni dunyoni yaxlit idrok etishni, geografik qamrovda mushohada yuritishi, geografik madaniyatni shakllantiruvchi, tevarak-atrofnii idrok qilishning muhim vositasi va uslubi xaritada mohirona foydalana bilishi, har qanday shaxs tabiat va jamiyat bilan munosabatining eng oqil me'yorlari amal qilishini, buning muhim sharti esa ularga kompleks yondashish ekanligini anglatuvchi mazmun-mohiyatga ega bolishi kerak.

Maktab geografiya ta'limining rivojlantirish mutasaddi xodimlar bilan birga, ko'p jihatdan geografiya fani o'qituvchilarining kasbiy mahorati, pedagogik tajribasi, bilimi va sa'viyasi hamda ota-onalarning oz farzandlari tarbiyasiga bevosita bog'liqdir.

#### **2.4. Yoshlarning ma'naviy barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda geografiya fanining ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 2009 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi "Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yuksaltirishdir" deb nomlangan ma'ruzasida respublikamizda keyingi yillarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan masalalar, ustuvor yo'nalishlar haqida to'xtalib kadrlarning malakasi, ishbilarmonligi va mas'uliyatini oshirish zarurligini ta'kidladi.

Xalq bilim darajasini ko'tarish, uni ma'rifatli qilish, madaniy saviyasini oshirish ilm-fan yutuqlarini sodda tilda ommalashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda vaqatli matbuot asosiy o'rin tutadi. Bundan nafaqat o'quvchi va talaba foydalanadi, balki ilm bilan qiziqqan har bir kishi foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Geografik bilimlarni ommalashtirishda, xalqimizning geografik bilim va geokologik madaniyatini oshirishda bizning universitet, ya'ni O'zbekiston Milliy universiteti geograf olimlarining xizmatlari tahsinga sazovordir. Jumladan, H.Hasanov, N.Dolimov, R.Rahimbekov, A.Rafiqov, Z.Akromov, P.G'ulomov, T.Mirzaliev, M.Mamatqulov, SH.Zokirov, I.Hasanov, F.Hikmatov, E.Safarov va boshqalar darslik, o'quv qo'llanmalar, ilmiy, metodik maqolalar yozish bilan birga turli ilmiy ommabop jurnallarda, gazetalarda ko'plab ilmiy ommabop maqolalarini chop etishgan.

O'zbekistonda geografik bilimlarni ommalashtirishga salmoqli hissa qo'shgan olimlarning yetakchisi shubhasiz H.Hasanovdir. H.Hasanovning bu sohadagi xizmatlari juda katta. Ularning respublika gazeta va jurnallarida e'lon qilingan maqolalari o'zining ommabopligi, qiziqarliligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Fan haqida suhbatlar ruknida o'nlab maqolalari e'lon qilingan. Bu rukunda e'lon qilingan «Arktika markazida», «Antarktida», «Ekvator dan o'tganda», «Dunyo okeani» va boshqa tazkiralari ayniqsa qiziqarlidir. «Fan va turmush» jurnalida chop etilgan «Sirli

orollar», «Toshkent globusi», «Dengiz nafasi», «Muchal» va boshqa ko'plab maqolalar shular jumlasidandir. SHu bilan birga H.Hasanov maqolalari oddiy tilda, juda tushunarli qilib yozilganligi bilan ajralib turadi.

M.Mamatqulov geografik bilimlarni ommalashtirish borasida tabiat ajoyibotlari, g'orlar, ularning sirli xususiyatlari, yer osti koshonalari, sirli buloqlar va tabiatning boshqa mo''jizalari haqida bir qancha tazkiralalar, ko'plab maqolalar yozgan.

R.Rahimbekov geografik bilimlarni ommalashtirish bo'yicha Respublika matbuotida geografik ta'limni yangilash, yuksaltirish va nazariy, metodik hamda tashkiliy muammolarini yirik maqolalarida ko'tarib chiqdi. Ayniqsa, ekologik ta'lim-tarbiya olimning doimo diqqat markazida bo'lgan. Geografik muammolar bo'yicha Respublika televideniesida ham muntazam suhbatlarda qatnashdilar. SHuningdek, geografik bilimlarni ommalashtirishga «Fan va turmush» jurnalida chiqqan «Qoraqalpoq eli», «Xalq so'zi», «Toshkent universiteti» gazetalarida hammualliflikda bosilgan maqolalari orqali ham o'z hissasini qo'shgan.

Geografik bilimlarni ommalashtirishda Z.Akromov ham ancha ish qilgan. Bu sohada «Fan va turmush» jurnalida chop etilgan «Ispaniyani kezkanda», «Muz saltanatiga sayohat», «O'zbekiston ovozi» gazetasida P.G'ulomov bilan hammualliflikda chiqqan «Birgalashib hal etsak» va boshqa maqolalari o'z o'rniga ega.

P.G'ulomovning geografik bilimlarni keng ommaga yoyish sohasiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Uning bu sohadagi xizmati 1955 yilda geografiyadan o'qituvchilik qilgan vaqtdan boshlangan. Uning ko'plab ilmiy ommabop, geografiya ta'limiga oid maqolalari «Gulxan», «Fan va turmush», «Saodat», «Guliston» jurnallarida, «Sovet O'zbekistoni», «Yosh leninchi», «Toshkent oqshomi», «Markaziy Osiyo madaniyati», «Lenin uchquni», «Toshkent universiteti», «Xalq so'zi» gazetalarida chop etilgan. «Saodat» jurnalida «O'lkamizni o'rganamiz», «Oynoma» ruknlarini ochib, unda ko'pgina geograf olimlarning qatnashishini tashkil etdi, ularda o'zi ham maqolalari bilan qatnashdi.

SHuningdek, geografik bilimlarni ommalashtirishga A.Rafiqov «Orol kecha, bugun va ertaga», «Geoekologik muammolar» deb nomlangan ommabop kitoblari, «Xalq so'zi» gazetasida hammualliflikda chop etilgan «Geografik bilimlar markazi» maqolasi bilan, I.Hasanov «Saodat» jurnalida bosilgan «Qashqadaryo vodiysi» maqolasi bilan, SH.Zokirov «Saodat» jurnalida chiqqan «Toshkent viloyati», «Fan va turmush» jurnalida chop etilgan «Toshlarda muhrlangan o'tmish», hammualliflikda tayyorlangan «O'rta Osiyo yoxud Turkiston», «Bu qadim yo'llar» maqolalari orqali ozmi-ko'pmi o'z hissalarini qo'shishgan.

Keyingi yillarda hech kimga sir emas, umumiy ta'lim maktablaridan geografiya faniga qiziqish pasaygan. Bunga sabablardan biri ayrim kishilarning hozirgi zamon geografiyasining mazmuni, o'rganish predmeti nima ekanligini yaxshi tushunmasligi, ya'ni geografiya hali ham nima qaerda, u qanday xususiyatlarga ega ekanini o'rganadi deb tushinishi bo'lsa kerak. Hozirgi zamon geografiyasi nima qaerda, u qanday, degan savolga javob bermay qolmay, undan, ya'ni tabiiy sharoitdan, tabiat resurslaridan qanday foydalanish kerak, tabiat va uning boyliklarini qanday ishlatish, ularni saqlab qolish va yanada boyitish uchun nimalar qilish kerak ekanini tadqiq qilishini bilishmasa kerak. Buni xalqqa tushuntirish hozirgi geograf mutaxassislar vazifasi. Bu ishda vaqtli matbuot-televidenie, radio, ommaviy jurnallar va gazetalarning o'zni juda katta. Afsuski, keyingi vaqtlarda ommaviy matbuotda geograf olimlarning maqolalarini juda kam uchratamiz. Nega ular H.Hasanov, Z.Akromov, N.Dolimov va boshqa geograf olimlarning geografik bilimlarni ommalashtirish sohasidagi an'analari davom ettirishmayapti.

Hozirgi vaqtda geografik bilimlarni ommalashtirish, chuqur geografik bilimlar tabiatdan, uning boyliklaridan tejab-tergab to'g'ri foydalanishda, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy to'g'ri joylashtirish va tashkil etishda, chet ellar bilan iqtisodiy, siyosiy va boshqa aloqalarni oqilona yo'lga qo'yishda, demografik muammolarni to'g'ri hal qilishda, geografik siyosatni to'g'ri belgilashda ayniqsa asqotadi.

Bir ijtimoiy munosabatlar sistemasidan ikkinchisiga o'tish davrida jamiyatning barcha sohalarida bo'lgani kabi ma'naviy hayot sohasida ham qayta o'zgarishlar yuz beradi. Xususan,

O'zbekiston sharoitida ma'naviy tiklanish, ma'naviy o'zlikni anlashni, jahon madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishni, ularni yangi sharoitga moslashtirishni taqozo qilmoqda.

Istiqlol qo'lga kiritilgach, O'zbekistonda ijtimoiy hayot demokratiyalashtirildi, jamiyat hayotida mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslikka erishildi, yangilanayotgan jamiyatimizni birlashtiradigan umumiy g'oya Prezidentimiz tomonidan o'rtaga tashlandi. Bu g'oya milliy tiklanish g'oyasi, istiqlol mafkurasi edi. Milliy istiqlol mafkurasini yurtboshimiz millatni birlashtiruvchi bayroqdir, deb atalgani bejiz emas.

Milliy mafkurani vujudga keltirishning eng birinchi vazifasi jamiyat va xalq milliy ongini shakllantirishdir. Istiqlol sharoitida milliy ongni qaror toptirish esa o'z navbatida qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

a) tarixiy xotirani tiklash: o'z o'lkamizning eng qadimiy madaniyatlarning markazi deb bilib, uning boy tarixiga ishonch hosil qilish; uning boshidan kechirgan muhim davrlarni yaxshi bilish; Amir Temur va temuriylarning jahon tarixida tutgan o'rinlarini aniqlash;

b) milliy o'zlikni anglash: o'tmishdoshlarimiz qoldirgan ma'naviy qadriyatlarni tiklash: Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy-tibbiy fanlarda; Farobiy, Ibn Sino, Beruniy-falsafa tarixida. Yassaviy, Naqshband, Najmiddin Kubro-diyonat (diniy bilimlar) sohasida, A.Navoiy, Kamoliddin Behzod-adabiyot va san'at sohasida;

v) milliy ongning o'sishi: milliy an'analar, urf-odatlar, bayramlarning tiklanishi;

g) islom dinini o'rniga qo'yish-Ismoil Buxoriy, At-Termiziylarning rolini aniqlash va e'zozlash;

d) jahon hamjamiyatida o'z o'rnini anglash, o'z imkoniyatlarini taarqqiyot yo'lida belgilab olish. Bular har bir fuqaroda o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, millatlararo munosabatlarga to'g'ri yondashishga undaydi, uning o'z diyori bilan faxrlanish hissiyotiga olib keladi.

Xalq ma'naviyati o'sha xalqning dunyosidir, uning mohiyati, mazmuni keng va chuqurroqdir. U xalqning milliy xarakteri, mentalitetidir.

Ma'naviyat arab tilidan olingan bo'lib, "ma'no" tushunchasini anglatadi. Ma'naviyat faqat insonga xos faoliyatdir. Tabiatda ma'naviyat yo'q. Inson ma'naviyati bilan hayvondan, jamiyat esa tabiatdan farq qiladi.

Ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka qarshi nafrat, iroda, matonat, qahramonlik va shu kabi ko'plab asl insoniy hislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir.

Ma'naviyatning mohiyati va jamiyat taraqqiyoti uchun bo'lgan ahamiyati masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida, maqola va nutqlarida har tomonlama yoritib berilgan.

Ma'naviyat tushunchasi nihoyatda keng va bepoyondir. Ma'naviyat insoniy fazilatlar bilan birga "ma'naviy madaniyat" deb atalmish dunyoviy ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar hamda din va diniy amaliyot-ibodat, taqvo, diniy marosim, diniy adabiyot kabi boshqa ko'plab tarixiy va zamonaviy qadriyatlarni ham qamrab oladi.

Ma'naviyat bilan tutashgandagina, odam farzandi inson degan buyuk va sharaflil nomga muyassar bo'ladi. SHuning uchun I.Karimov yozadi: "Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi".

Mustaqillikning ma'naviy asoslari Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlagan to'rt negizga tayanadi:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik. Bu kishilik jamiyati rivojlanishi jaaryonida erishilgan eng ilg'or yutuqlarni o'zlashtirib, milliylikni umuminsoniylik bilan boyitishdir.
2. Ma'naviy merosni mustahkamlash va rivojlantirish.
3. Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi. Hozirgi paytda ijtimoiy taraqqiyotda, jamiyat hayotining har bir ohasida hal qiluvchi omil insondir. Yangi

O'zbekistonning o'z imkoniyatlarini namoyon qila olmaydigan, qotib qolgan andozalar bo'yicha fikrlaydigan mutelik va qo'rquv, milliy nomukammallik tuyg'usidan xalos bo'lmagan inson bilan buyuk kelajakni yarata olmaymiz

4. O'z Vatanini sevish, u bildan faxrlanish, Vatan ozodligi uchun kerak bo'lsa jonfido qilishga tayyor bo'lish, uning ravnaqi uchun qayg'urish mustaqillikning muhim ma'naviy asosi hisoblanadi.

Bugungi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishga mustaqillik talablari, umummillat, Vatan, istiqbol nuqtai nazaridan yondoshish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Mustaqillik tufayli yoshlar ongida, dunyoqarashlarida tub o'zgarish amalga oshmoqda. Ko'pgina yoshlarimiz mustaqillikni chuqur anlagan holda o'z faoliyatlarini ilm sirlarini egallashga hunar o'rganishga, xorijiy tillarni egallashga, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizni e'zozlagan holda, respublikamiz ijtimoiy hayotida faol ishtirok etmoqdalar. Zero, chuqur bilim va salohiyat egalari bo'lgan yoshlarga kelajagimizning mustahkam poydevorini yarata oladilar. SHuni ta'kidlash joizki, ma'naviy qadriyatlarimizni avlodlardan-avlodlarga yetkazadigan, uni boyitadigan, avvalab, asrab saqlaydiganlar ham yoshlar ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. SHuning uchun ham ularning hayotiga befarq qarash-bu o'zligimizga, kelajagimizga befarq qarashdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurilishi jarayonida yoshlarning turli siyosiy-ijtimoiy institutlarda faol ishtirok etish bilan birga, ular faoliyati, aql-zakovati mamlakat oldida turgan maqsadlar, vazifalar bilan uyg'un bo'lishi davr talabi hisoblanadi.

Binobarin, geografiya fanining maqsadi talabalarda va o'quvchilarda dunyo uning qismlari bo'yicha bilimlar berar ekan fanning halqimiz ma'naviy yuksalishidagi vazifalari quydagilar iborat:

- regional tabiiy geografiya va landshaftshunoslikning ob'ekti, predmeti haqida tushuncha berish;
- O'zbekistonning tabiatini geografik o'rganish tarixi bosqichlariga tavsif berish;
- O'zbekiston tabiatini shakllantiruvchi eng muhim tabiiy omillar mazmuni va o'rnini ochib berish;
- O'quvchilarga geografik qonuniyatlarini o'rgatish;
- dunyo uning mintaqalari va respublikamiz tabiiy sharoiti va boyliklaridan xalq xujaligini rivojlantirish va aholi sog'lig'ini saqlash maqsadlarida foydalanish imkoniyatlari va muammolari haqida fikr yuritishga o'rgatish;
- Dunyoning global muammolari haqidagi bilimlarni tasavvur qilishga o'rgatishdir.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, geografiya fani halqimizning va yoshlarni ma'naviy yuksalishida o'rnini beqiyos hisoblanadi.

## Xulosa

Ekskursiyalar bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotni maktab o'quv-tajriba maydonida o'tkazish mumkin. Mashg'ulot maqsadi - tabiat ustidan tashkiliy kuzatishlarni boshlash, atrof tabiat obektlari to'g'risida oddiy tushunchalar berishdir. Birinchi mashg'ulotni qiziqarli hikoya bilan boshlash lozim, undan o'quvchilar tabiat nima ekanligi to'g'risida ko'nikmalarni olishlari, odamning tabiatda yashashligi, unda hayot uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlar borligi, ekologik muhit, ko'p ming yillar davomida odam tabiat ne'matlari hisobiga yashab kelganligi va faqat yaqindagina tabiatda bo'lmagan narsalar (paravoz, paraxod, kosmik yo'ldosh, raketa va hokazolar)ni ishlab chiqara boshlaganliklarini bilib oladilar.

Kuzatuvchanlikni rivojlantirishda ekskursiyalar katta ahamiyatga ega.

Bahor oylarida o'quvchilar chinor, shumtol, qayrag'och, tut, terak shoxlarida kurtaklarning yozilishini kuzatadilar. O'qituvchi o'quvchilarning kuzatishlariga rahbarlik qilib, ularning diqqatini barcha daraxtlarda kurtaklar katta-kichik bo'lishi (terak va chinorda kurtaklar yirik, qayrag'ochda - ancha mayda, akatsiyada - po'stlog'idan zo'rg'a ko'rinib turadi) va shakl jihatidan (terakda ular cho'ziq, qayrag'ochda sharsimon, nastarinda tuxumsimon) bir-biridan farq qilishiga qaratadi. Kuzatishlar natijasida o'quvchilar daraxtlarning barglari bo'lmasa ham kurtaklariga qarab farq qilish mumkinligiga ishonch hosil qiladilar.

Kurtaklarning rivojlanishi, ularda barglarning paydo bo'lishini kuzatish uchun fevral oyi oxirlarida novdalar kesib olinadi va ularning bir qismi iliq suvli idishga, bir qismi - sovuq suvli idishga joylashtiriladi. o'quvchilar 1-2 hafta davomida ularni kuzatib, qaysi idishdagi novdalarda barglar ertaroq chiqishini aniqlaydilar. Sinf kalendariga novdalar sovuq va iliq suvga solingan vaqt belgilanadi va har ikkala novdaning rasmi chiziladi. Barglarning paydo bo'lishini kuzatish jarayonida o'qituvchi o'quvchilar diqqatini kurtaklar iliq suvli idishdagi novdada tez yozilganligiga qaratib, barglarning rivojlanishi uchun issiqlik kerakligi to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Ikki haftadan keyin yangi novdalar rasmi chiziladi. Rasmlarda kuzatishlarning boshlanishi va oxirida novdalar o'rtasidagi farqlar ko'rinib turishi kerak.

Gerbariy quyidagicha tayyorlanadi: albom muqovasiga kuzatilayotgan o'simlikning nomi yozilib, rasmi chiziladi, birinchi varag'iga uning urug'lari yopishtiriladi, ikkinchisiga maysalar, qolganlariga izchillik bilan dastlabki ikki baigli, ildizli o'simlik bilan, to'rt bargli kichkina g'unchali o'simlik, g'unchasi ochilayotgan o'simlik, gullari va boshqa qism, shuningdek, yetilgan mevalari bo'lgan o'simliklar birkiriladi. Har bir varaq ostida o'simlikning rivojlanish davri, kuni ko'rsatiladi.

5- sinf o'quvchilari birinchi darsdan boshlab hayvonot dunyosi bilan ham tanishtirib boriladi. Kuzda hasharotlar, masalan, kapalaklar (qahrabo kapalagi, karam kapalagi, qichitqi o't kapalagi) kuzatiladi. Bolalar e'tibori kapalaklarning tashqi ko'rinishiga, qaysi o'simliklar ustida uchishiga qaratiladi.

Beshinchi sinfda kuzatishlar o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab olib boriladi. Ob-havoning o'zgarishlarini kuzatish g'oyat muhimdir. Osmonning holatlarini kuzatish jarayonida "ochiq", "bulutli", "kam bulutli" tushunchalari; quyoshni kuzatishda - "sovuq", "juda sovuq" ("ayoz"), "iliq", "issiq"; shamolni kuzatganda - "kuchli", "kuchsiz" tushunchalari shakllanadi. SHu vaqtning o'zida bolalar yog'inning har xil turlari - yomg'ir, qor, do'l, tuman, qirov, buldurug' haqida tasavvuiga ega bo'ladilar.

Bolalar asta-sekin ob-havoni kuzatish natijalarini kundaliklari va sinf tabiat kalendarida har kuni belgilab borishga odatlanadilar. Ob-havo va shamolning kuchi, sekundiga necha metr tezlikda esgani darslikda keltirilgan shartli belgilar bilan belgilanadi.

Ob-havoni kuzatishdan tashqari o'quvchilar o'simlik va hayvonlar hayotidagi mavsumiy hodisalarni payqashga o'rganib boradilar. Bolalar o'simliklar faqat tabiatni bezatib qolmasdan, balki odamlar va hayvonlar uchun zarur ekanligini bilib oladilar: ular oziq beradi, havoni hayot uchun zararli gaz va changlardan tozalaydi.

Maktab o'quvchilari turg'un, ixtiyoriy diqqatga ega emaslar, shuning uchun ular kuzatishga birdaniga bir necha obektни qamrab ololmaydilar.

Doskaga chaqirilgan o'quvchi ob-havoni batafsil ta'riflaydi, tabiat va odamlar mehnatida ko'rgan qiziqarli narsalar haqida gapirib beradi. Uning javobini o'rtoqlari to'ldiradi va aniqlashtiradi (javobalbatta jurnalda baholanadi), keyin bu axborotning asosiylari kalendarga yozib qo'yiladi.

Umumlashtirilgan, tabiat va mehnat kalendarida qayd etilgan kuzatishlardan faqat geografiya darslaridagina emas, balki matematika (hisoblashlar, masalalar tuzish, diagrammalar chizish), ona tili (insho, tabiatni yoki yil faslini ko'rsatish uchun qiziqarli she'rlar va nasriy asarlardan parchalar tanlash), mehnat ta'limi (o'quv-tajriba maydonida o'simliklarni parvarish qilish, tajribalarni umumlashtirish) darslarida ham foydalanish mumkin.

Kuz davrida o'quvchilar e'tiborini qushlar ham tortadi. O'qituvchi maktaboldi maydonida va tabiat qo'ynida qushlarni kuzatish, ularning nomlarini aniqlashga urinish, qushlarning uchishlarini aytib berish, qushlar uchun nima - sovuqmi yoki ochlik qo'rqinchli ekanligini tushuntirish to'g'risida topshiriq beradi. O'qituvchi bolalarga qushlar uchib ketishga tayyorlanib, galaga to'planishini ko'rsatadi, nima uchun ko'pincha o'zbekistonda pushtirangli maynalarning katta galalari va uchib ketayotgan turnalarni ko'rish mumkinligini tushuntiradi.

SHunday qilib, maktab ta'limi geografiya darslarida ekskurtsiya darslarini tashkil etish orqali o'qituvchilarini bugungi kun talablari asosida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llab, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashdan iborat. Bunda asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchilarga maktab geografiya darslarida ekskurtsiya darslarini tashkil etish metodikasi haqida eng zarur ilmiy-nazariy bilimlarni berish.
2. Ekskurtsiya darslarini ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini aniqlash.
3. O'quvchilarga geografik fanlar asosida zamonaviy pedagogik texnologiya haqida bilim berish.
4. O'qituvchilarni dastlabki ekskurtsiya darslariga oid o'quv metodik adabiyotlar, dastur va darsliklarni tahlil qilishga o'rgatish.
5. Ekskurtsiya darslari vositasida o'qitishning turli tashkiliy shakllarini, uslublarini, zarur ko'rgazmali qurollar tayyorlash, darsdan tashqari ishlar to'g'ri tanlash malakalarini hosil qilish.
6. Fanlararo aloqalar va ta'lim-tarbiya integratsiyasi asosida turli dars tiplari uchun ishlanmalar, reja-konspektlar tuzishga tayyorlash.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi. -T., 1997.
2. Ta'lim to'g'risidagi Qonun. -T., 1997.
3. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar, № 14 (5434).
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demoraktik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq, 1998.
6. Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2011 yil 8 dekabr.
7. Karimov I.A. Demokratik isloxlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: 19.T. O'zbekiston, 2011.
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
9. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. -325 b.
11. O'zbekiston Respublikasi halq ta'limi vazirligi chizmachilik o'quv fani dan majburiy standart nazorat ishlarining o'tkazish bo'yicha tavsiyalar (8-9 sinf). – Toshkent, 2006 y.
12. Abdullaev M.N., Sayitmuratova F.A., Jahon ijtimoiy iqtisodiy geografiyasini o'qitishda pedogogik texnologiyalarni qo'llash masalalari. // Tabiatdan foydalanish va muhofoza qilishning geografik asoslari Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Namangan, 2010.- 353-355 b.
13. Abdullaev O., Sotvoldiev N. Agrosanoat majmuasida material resurslar mintaqaviy bozorining rivojlanish xususiyatlari //Notijorat texnik-texnologik tizimlarda iqtisodiy muammolar va ularning yechimi: respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi material-lari. – Namangan, 2003. 111-113-b.
14. Abdullaev F. Analiz kon'yunktury sel'skoxozyaystvennyx ryнков //Jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyot-ning raqobatbardoshligi: respublika ilmiy-amaliy seminari maqola-lar to'plami. – T.: 2007. 229-231-b.
15. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik.-T.: TDIU, 2004. – 304 b.
16. Abduraxmonov B., Nazarov A., Mirzaaxmedov H., Jumaxanov SH. Geografiya ta'limida modul texnologiyasi // Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. 45-49 b.
17. Abduraxmonov X.A. Geografiya geografik informatsion sistemalardan foydalanish // Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. 28-30 b.
18. Abduraxmonov B.M. Geografik madaniyatni shakllantirishda axborotni ifodalovchi tasviriy ko'rsatmalardan foydalanish // Fan, ta'lim, madaniyat va biznes soxalarida Internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish. Xalqaro ilmiy–amaliy anjuman materiallari, Toshkent –Samarqand.2004. 207- 208 b.

19. Bunakova. T. M., Radionova I.A. Ekonmicheskaya geografiya Uchebno-spravochnoe posobie. Moskovskiy litsey. 2000.
20. Vahobov H., Azimov SH., Rafiqov A. Amaliy geografiya. Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari uchun darslik. T.; SHarq. 2009.
21. Vahobov H.Sultonova N. Tabiiy geografiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish // Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008.- 35-38 b.
22. Vol'skiy V.V. Sotsial'no-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. M.: Drofa, 2001. 560 s.
23. Bunakova. T. M., Radionova I.A. Ekonmicheskaya geografiya SNG i stran Baltii. M., 1994.
24. Dushina I.V. Pedagogicheskie texnologii obucheniya geografii. «Geografiya v shkole» - 2001. -№3 –str. 49-53
25. Do'matov SH., Do'smatov D. Geografiya fanida mutaxassislik fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish // Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008.- 72-73 b.
26. Lipets. Yu.G., Pulyarkin.V.A, SHlixter. S.B. Geografiya mirovogo xozyastvo. M.: VLADS. 1999.
27. Lavrov.S.B., Kaledina N.V. Ekonomicheskaya i sotsial'no-politicheskaya geografiya mira. M.: 2002.
28. Mahmudova M. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. (Amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanma). Namangan. 2007.
29. Mahmudov V., Mo'ydinov M. Geografiya fani o'qituvchilari tayyorlashning ayrim masalalari // Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. -8-9 b.
30. Mirzaliev T. Respublika maktablarini kartografik materiallar bilan ta'minlash to'g'risida // Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. -12-14 b.
31. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma/ A.S.Soliev, E.A.Ahmedov, R.Y.Mahamadaliev va b.-T.: Universitet, 2003. – 304 b.
32. Mirzaahmedov H., Jumaxonov SH. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tarmoq va hududiy xususiyatlari //Geografiya tarixi: xotira va qadriyatlar: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari.-Namangan, 2007. 97-100-b.
33. Mo'minov M, Mahmudova K., Maktab ta'limida geografik o'yinlar// Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. 148-149 b.
34. Mo'minov M., To'rabaev M.X. Geografiyani o'rgatishda munozarali darslar. // Tabiatdan foydalanish va muhofoza qilishning geografik asoslari Respulika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Namangan, 2010 .-329-330 b.
35. Tadjibaev A., Nishonova A. 9-sinf geografiya darsligida foydalanadigan tasvirlarning o'ziga xosligi. // Tabiatdan foydalanish va muhofoza qilishning geografik asoslari Respulika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Namangan, 2010. 362-363 b.
36. Hasanova M.G', Ahmedova N.SH. Geografiya darslarida innovatsiya texnologiyalaridan foydalanish // Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. 64-66 b.
37. Xudoyberdieva M.A.,Egamov B.Yu. Sinfidan va maktabdan tashqari ta'limda o'lkashunoslik faoliyatining o'rni va ahamiyati // Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. 119-120 b.
38. Xolmuminov J. Ekologiya va konun.-T.: Adolat, 2000
39. Xodiev B.Yu. Oliy iqtisodiy ta'lim tizimi uchun zamonaviy o'quv adabiyotlar yaratish: yangi standart talablari, tuzilishi, mazmuni. – T.: TDIU, 2005. 18-19 b.

40. Xodiev B. va boshq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.
41. Norova F.A., Rahmatullaev D.M. Geografiya ta'limida ekologik ta'lim va tarbiyaning ba'zi bir masalalari // Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. 127-129 b.
42. Nazarov A.A.. Geografiya ta'limida tabiiy muhit-ekologik vaziyat-iqtisodiyotning o'zaro aloqadorligini o'rganilishi// Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. 78-79 b.
43. Soliev A.S. Geografiya ta'lmining dolzarb muammolari// Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. 5-7 b.
44. Soliev A., Maxammadaliev R. Iqtisodiy geografiya. -T.; O'zbekiston. 1995. -75b.
45. Soliev A., Qarshibaeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. - T., 1999. -181b.
46. Soliev A., Ahmedov E., Mahammadaliev R. va boshq. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma - T.: Universitet, 2003. -354 b.
47. Soliev A., Miraahmedov H.S., Jumaxanov SH.Z. Qo'shma korxonalar geografiyasi.- Namangan, 2006.-135 b.
48. Soliev A.S. Hududiy majmualarning nazariy asoslari.-T; Universitet, 2008.-155 b.
49. Soliev A.S., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari qishloq joylari geografiyasi (Qishloq joylar geografiyasi).-T.; Fan va texnologiya, 2009. -212 b.
50. Qayumov A., Safarov I., Tillabaeva M. Jahon iqtisodiy –ijtimoiy geografiyasi. Umumiy ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun darslik. –Toshkent. "O'zbekiston". 2006 yil. -224 bet.
51. Egamberdiev R., Eshchanov R. Ekologiya asoslari.-T.: Zar qalam. 2004.
52. Ergashev A. Umumiy ekologiya. –T.; O'zbekiston, 2003.
53. G'ulomov P.N., Mirakmalov M.T., Xudoyberdieva M.A. O'zbekistonda geografiya ta'lmining bosqichlari // Geografiya ta'limi va uslubining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2008. 127-129 b.
54. [www.nature.uz](http://www.nature.uz)
55. [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz)
56. [www.carec.uz](http://www.carec.uz)

1.